

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“O‘ZBEKISTONDA ISLOHOTLARNING NAZARIY
KONSEPTUAL MASALALARI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O‘zMU t.f.d., prof X.Yunusova

Taqrizchi:

t.f.d., R.Xoliqova.

t.f.n., dots. R.Siddiqov.

**O‘quv - uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2021 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.	11
III. NAZARIY MATERIALLAR	16
IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR	93
V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	98
VI. GLOSSARIY.....	100
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	102

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiq-langan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Preziden-ting 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risi-da”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’-lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Far-monlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslarimodulining maqsadipedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-

tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilgʻor tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni oʻzlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “Oʻzbekiston tarixi” yoʻnalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, koʻnikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini oʻqitish jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini taʼminlash;

-maxsus fanlar sohasidagi oʻqitishning innovatsion texnologiyalari va ilgʻor xorijiy tajribalarini oʻzlashtirish;

“Oʻzbekiston tarixi” yoʻnalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan oʻzaro integratsiyasini taʼminlash.

Modul boʻyicha tinglovchilarning bilimi, koʻnikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar

Modulni oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

□ Oʻzbekistonning oʻziga xos istiqloq va taraqqiyot yoʻlini; □ Oʻzbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari;

□ Respublikani yanada rivojlantirishning strategik yoʻnalishlarini;

□ Oʻzbekistonda ilk oʻrta asrlar davri yangi shaharlarning shakllanishini;

□ Ijtimoiy fanlarda foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmualarini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

□ Ijtimoiy fanlarni oʻqitish boʻyicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qoʻllash;

□ axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlarni oʻtkazish;

□ eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarini ishlab chiqish;

□ ilgʻor tajribalardan foydalanish;

□ oʻz ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini oʻqitish tizimini qoʻllash;

□ Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari, O‘zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalarni ta‘lim tizimiga tadbiq etilishi, O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar, pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

□ O‘zbekiston tarix faniga axborot kommunikatsion texnologiyalari va ularni qo‘llashning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini bilish;

□ ijtimoiyfanlarni turli sohalarga tatbiq qilish;

□ ijtimoiyfanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim. **Tinglovchi:**

□ O‘zbekiston tarix fanining dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;

□ ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish; □ O‘zbekiston tarixiga oid masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;

□ ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;

□ egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;

□ ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish**kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspresso‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning islohotlarning nazariy jihatlarini tahlil qilish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida mustaqillik yillari amalga oshirilshgan islohotlar, natijalar va muammolar, Yangi O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishi chuqurroq o‘rganish va pedagogik amaliyotda qo‘llash kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		JAMI	jumladan	
			Nazariy	Amaliy Mashg‘ulo
1.	XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri.	2	2	
2.	Milliy davlat tizimi-ning barpo etilishi, boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.	2	2	
3	O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.	2	2	
4	2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasirivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.	2	2	

5	Davlat va jamiyat o'rtasi-dagi muvozanatni ta'minlash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.	2		2
6	Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar.	2		2
7	Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.	4		4
8	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millat-lararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi, vazifalari va funksiyalari.	4		4
	Jami:	20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLARMAZMUNI

1-mavzu. XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O'zbekistonga ta'siri.

1.1. Qayta qurish siyosatining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga ta'siri.

1.2. Mustaqillik arafasida O'zbekistonning iqtisodiy hayoti, qishloq xo'jaligining holati.

1. 3. O'zbekiston siyosiy hayotidagi jarayonlar: kadrlar masalasi, "paxta ishi" qatag'onlari, o'zbek tiliga davlat tili maqolmini berish uchun harakatlar.

1.4. O'zbekiston yangi rahbariyatining respublika mustaqilligi yo'lidagi harakatlari. O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi.

2-mavzu. Milliy davlat tizimining barpo etilishi, boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.

2.1. O'zbekistonda milliy davlat tizimining barpo etilishi va boshqaruvda yangi usullarining shakllantirilishi.

2. 2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.

2.3. O‘zbekistonning yangi siyosiy va davlat hokimiyati tuzilishi asoslarining yaratilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.

3-mavzu. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.

3.1. O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va uning bosqichlari.

3.2. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lining tanlanishi va uning huquqiy asoslarini yaratilishi. Mamlakatda tadbirkorlik sohasida islohotlar: yutuqlar va muammolar.

3.3. Mustaqillik yillarida ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishi, uning bosqichlari, yangi O‘zbekistonda sohadagi o‘zgarishlar, uning natijalari. Fan va ta’lim sohasidagi islohotlar.

3.4. Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minlash masalalari

4-mavzu. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.

4.1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi takomillashtirish vazifalarini belgilanishi

4.2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini belgilanishi

4.3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish vazifalari

4.4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanishi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Davlat va jamiyat o‘rtasi-dagi muvozanatni ta’minlash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish. (2 soat).

2-amaliy mashg‘ulot.Iqtisodiyotni rivojlantirish va libe-rallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.(2 soat).

3-amaliy mashg‘ulot.Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakl-lanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi(4 soat).

4-amaliy mashg‘ulot.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining tashkil etilishi, vazifalari va funksiyalari.(4 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	O‘zbekiston mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida, jahonning rivojlangan davlatlari tajribasidan samarali foydalangan holda jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishi.	Bir vaqtni o‘zida bir nechta yo‘nalishda amalga oshiriladi...
W	Iqtisodiy islohotlarning kuchsiz tomonlari	Islohotlar arafasida mustamlaka tuzumiga xos, bir yoqlama rivojlangan iqtisodiyotning oqibatlari, kishilar turmush tarzi, jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad darajasining pastligi, tomorqa yerlarining kamayib borishi, ekologik ahvolning og‘irligi, bola va ona salomatligining og‘irligi holatlari mavjud edi.
O	Davlat hokimiyati va iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslarini yaratilishi	Siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish, konstitusiyaviy qurilishni mustahkamlash, fuqarolarning huquq, erkinliklari va xavfsizligini ta’minlash, yuqori davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining o‘zaro aloqalarini takomillashtirish zarur edi.

T	To'siqlar (tashqi)	Yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish 12-o'ringda, milliy daromad ishlab chiqarish sobiq ittifoqdosh respublika orasida 2 xissa past edi.
----------	--------------------	--

“LOYIHA metodi

“Loyiha” metodi - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.

ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH

Ta'lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o'z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqqacha)

“Insert jadvali ”

Tinlovchilarda ma'ruzalar va mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma'lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o'z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo'yicha

mustaqil ishlab, yangi ma'lumotlar oladi, ularni matnda qo'yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Namuna:

Insert jadvali

O'zbekistonda siyosiy islohotlar va uning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni va roli

V	+	-	?

“V”- haqidagi bilimlarimga javob beradi;

“+” haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

“-” yangi ma'lumotlar

“?” mavzuga oid tug'ilgan savollar

«Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. «Xulosalash» metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma mamateriallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ishbosqichlari	Faoliyat shakliva mazmuni
----------------	---------------------------

<p>1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
<p>2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
<p>3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
<p>4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

III. NAZARIY MATERIALLAR

MAVZU № · XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri.

REJA:

1. Qayta qurish siyosatining O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga ta’siri.
2. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning iqtisodiy hayoti, qishloq xo‘jaligining holati.
3. O‘zbekiston siyosiy hayotidagi jarayonlar: kadrlar masalasi, “paxta ishi” qatag‘onlari, o‘zbek tiliga davlat tili maqolmini berish uchun harakatlar.
4. O‘zbekiston yangi rahbariyatining respublika mustaqilligi yo‘lidagi harakatlari. O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi.

Tayanch iboralar: rejalashtirish, inqiroz, ma’muriy-buyruqbozlik, yakkaxokimlik, ta’qib, nomenklatura, sezid, milliy siyosat.

1.1. Qayta qurish siyosatining O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga ta’siri.

Sobiq sovet davlati iqtisodiy qonuniyatlariga ko‘ra go‘yoki sotsialistik xalq xo‘jaligi tarqoqligini bartaraf etadigan “mintaqaviy boshqaruv” iqtisodiyotda to‘liq yo‘lga qo‘yilgan va bu respublikalarni markaz boshqaruviga to‘liq bo‘ysunishini ta’minlab qo‘ygan edi. Shubhasiz, O‘zbekiston SSRning ham bu mintaqada tutgan o‘rni katta salohiyatni kasb etar va respublika sanoati SSSR sanoatining tarkibiy qismi edi. O‘rta Osiyo mintaqasi mamlakatning eng katta agrar-iqtisodiy rayonlaridan biri bo‘lib, bu hududdagi o‘zlashtirilgan yerlar butun SSSRdagi o‘zlashtirilgan yerlarning yarmiga teng edi. Mehnatning mintaqaviy bo‘linishiga ko‘ra O‘rta Osiyoda «Paxta» xomashyo kompleksini rivojlantirish taqozo etar, ittifoqda yetishtirilgan paxta xom ashyosining 9/10, pilla va qorako‘lning 2/3, guruchning 1/3, qismi, junning ma’lum miqdori, tamaki, meva, uzum, poliz ekinlarining aksariyati va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari ham aynan shu yerda yetishtirilardi. Sotsialistik tizimga kiruvchi davlatlardagi to‘qimachilik sanoatida ishlatilayotgan tolaning 30 foizdan 97 foizigacha qismi esa O‘zbekiston SSRda yetishtirilgan paxta hisobidan ta’minlanardi.

1985 yillarda ilmiy yechimini topmagan va hech qanday ilmiy xulosalar, jahondagi ilg‘or tajribalarga asoslanmagan «jadallashtirish», chuqur o‘ylanmagan va kommunistik mafkura doirasidan chiqqan olmagan “qayta qurish” siyosati ham jarayonlarini joriy etish bilan ham sobiq sovet davlatida yuzaga kelgan og‘ir iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni

bartaraf eta olmadi. Aksincha “qayta qurish” siyosatida belgilangan vazifalar “izchil bo‘lmaganligi oqibatida respublikalarda iqtisodiy taqchillikni, inflyatsiya nihoyatda og‘irlashib ketdi”.

1.2. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning iqtisodiy hayoti, qishloq xo‘jaligining holati.

XX asr 90 yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Davlat boshqaruvining partiyaviy, sinfiy diktatura qonun -qoidalariga asoslangan mezonlari, shovinistik munosabat, buyuk davlatchilik g‘oyalari hukmron bo‘lgan sovet davlatida bu davrga kelib ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka erishish masalasi ko‘ndalang bo‘lib qoldi. SSSR Oliy Soveti inqirozlik holatlardan chiqish yo‘lini topa olmay qoldi. 1990 yillar oxirlariga kelib markaz va ittifoqdosh respublikalar o‘rtasi turli tushunmovchiliklar kelib chiqdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo‘jalik hayoti boshqarilmay qoldi. 1990 yil 25 iyulda SSSR Prezidentlik Kengashi SSSR Ministrlar Soveti raisining mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o‘tkazish yuzasidan qo‘shimcha choralar haqidagi axborotini tingladi. 6 avgustda SSSR Prezidenti M.Gorbachev “Yangi Ittifoq Shartnomasining asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning Ittifoq Dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida” Farmoni qabul qilindi. Tuzilgan komissiyaga 1990 yil sentabrdan kechikmasdan Hukumat dasturini ishlab chiqish topshirildi. 1990 yil 11 sentabrda RSFSR Oliy Soveti ikkinchi sessiyasi S.Shatalinning “500 kun” Dasturini qabul qildi. Biroq, SSSR Oliy Sovetining 21 sentabrda bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi sessiyasi bu Dasturni qabul qilmadi. 1990 yil 24 sentabrda sessiya “Xalq xo‘jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalari”ni muhokama qilib, Hukumat dasturi va S.Shatalin dasturidan iborat yagona Dastur ishlab chiqishga qaror qabul qildi. Bu boradagi mamlakatda uchta kuchlar manfaati to‘qnashdi.

Bu vaqtda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og‘ir edi. Har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakatda 12-o‘rinda, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatkich esa Ittifoqdagi o‘rtacha darajadan ikki hissa past bo‘ldi. Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo‘jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada qolgan, respublikada aholi jon boshiga xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish o‘rtacha Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil etgan edi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni asoslash uchun quyidagi jadvalni keltirish joiz.

1-jadval Sobiq Ittifoqdagi o‘rtacha hayot darajasiga nisbatan O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy holat

№	Aholi jon boshiga	
1	Yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish	12-o‘rin

2	Milliy daromad ishlab chiqarish	2 hissa past
3	Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish	40 foiz
4	Sanoatdagi mehnat unumdorligi	40 foiz
5	Qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi	50 foiz
6	Go'sht, sut va sut mahsulotlari, tuxum iste'moli	50 foiz
7	Oyiga 75 so'mdan kam yalpi daromad oladiganlar ulushi (45 foiz aholi)	2 hissa ko'p

2-jadval

1989 yilda O'zbekiston aholisi jon boshiga iste'mol qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdori

(1 kishiga kilogramm hisobida)¹

№	Mahsulot turlari	SSSR	O'zSSR
1	Go'sht va go'sht mahsulotlari	67	31
2	<i>Sut va sut mahsulotlari</i>	363	201
3	Tuxum (dona)	268	119
4	Kartoshka	98	25
5	Sabzavot va poliz mahsulotlari	95	95
6	Meva va rezavorlar	41	27
7	Non va non mahsulotlari	129	167

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman, mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qildi. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi SSSRda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, respublikada 45 foizga bordi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmadi. Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qoldi. Maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan edi. Paxta yakkahokimligi, ilmiy asoslangan almashlab ekishlar buzilgan, yerning tinka-madori qurib, suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamayib borayotgan va u qishloq xo'jaligiga halokatli ta'sir ko'rsatgan edi. Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish cheklab qo'yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlash muammolari keskinlashib, Orol dengizining falokati butun respublikada o'zini ko'rsata boshlagan edi.

1.3.O'zbekiston siyosiy hayotidagi jarayonlar: kadrlar masalasi, "paxta ishi" qatag'onlari, o'zbek tiliga davlat tili maqolmini berish uchun harakatlar.

1980 yillarning ikkinchi yarmiga kelib Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, inqiroziy holatlar partiya, sovet, profsoyuz, komsomol, ma'muriy va xo'jalik tashkilotlarida qat'iyatsizlik, sustlik, sotsialistik mulkni talon-taroj qilish, poraxo'rlik, chayqovchilik, ko'zbo'yamachilik, qo'shib yozish kabi holatlar bilan bog'landi va «respublikadagi iqtisodiy qiyinchiliklarni O'zbekistonga xos bo'lgan xususiyat, bunday

¹ Batafsil ma'lumot uchun qarang: Qobilov Sh. R. Mustaqillik g'oyibdan kelgan emas... – T., 2012. – B. 31.

vaziyatga ta'sir etishning asosiy yo'li esa kadrlar bilan ishlash, ularning faoliyatidan "to'g'ri" foydalanish ekanligini, bu masalaga "sinfiy yondoshish urush yillaridagidek zarurligini", ta'kidlandi. Sanoat korxonalari, kolxozlar, sovxozlar, boshqa tashkilotlarning rahbarlik lavozimida ishlayotganlarning 70-90 foizi bevosita "sinfiy kurashlar maktabini o'tamagan" kishilar ekanligini ta'kidlab, respublika ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi barcha o'pirilishlar mahalliy rahbarlarning aybi bilan yuzaga keldi, degan fikrga tayandi va O'zbekiston SSRga RSFSR va mamlakatning boshqa respublikalaridan rahbar kadrlarni yuborish to'g'risidagi taklif bilan chiqdi. Shundan so'ng respublikadagi "vaziyatni izga solish" maqsadida avvalgi lavozimida ishlab turgan vaqtda biror marta ham o'zini ko'rsatmagan, o'z ishining ustasi bo'lmagan kadrlar yuborilib, mas'ul lavozimlarga tayinlana boshladi. Natijada O'zbekiston Kompartiyasi MQ, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti, O'zbekiston SSR Oliy Soveti, O'zbekiston SSR Prokuraturasi, O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Ministrligi kabi muhim boshqaruv bo'g'inlari shunday kadrlar qo'l ostiga tushib qoldi. Ular respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yanada keskinlashishining asosiy sababchilariga aylana bordilar. 1983-1985 yillar oralig'ida O'zbekistonda 58.000 kishi ishlab turgan lavozimidan olib tashlandi.

Bir vaqtda O'zbekistonga go'yoki "paxta ishi"ni tekshirish uchun SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T. Gdlyan boshliq 200 nafar kishidan iborat tergov guruhi yuboriladi. Bu "paxta ishi"ni amaldagi boshlanishi edi. O'sha yillarda "paxta ishi" deb nom olgan qatag'onlarga mahalliy kadrlarning faoliyati bilan bog'liq tarzda milliy, mintaqaviy voqelik sifatida baho berildi. Sovet davlatini qamrab ola boshlagan inqiroziy holatlarni mavjud tuzum negizida emas, balki mahalliy kadrlarning faoliyati bilan bog'liq tarzda milliy, mintaqaviy voqelik sifatidagina "yuzaga kelgan salbiy illatlarda" deb bilgan markaz bu holatlarni mansabni suiste'mol qilish, poraxo'rlik, qo'shib yozishlar avj olishiga olib kelgan asosiy omillardan biri deb qaradi. Natijada 1980 yillarga kelib O'zbekiston tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab olindi. O'zbekistonga markazdan O'zbekistonga tartib, intizom o'rnatish uchun yuborilgan «desantchilar» esa mahalliy shart - sharoitlarni hisobga olmay, bepisanda tarzda ish olib borib, o'zbek xalqining milliy manfaatlari, madaniyati, qadr - qimmatini poymol etdilar. Natijada "O'zbekiston - tergov usullari tajribasi o'tkaziladigan maydonga" aylanib qoldi. Bu "tozalash ishlaridan" ko'zlangan maqsadni faqat iqtisodiy "jinoyatchilik"ni fosh etish emas, balki mamlakat hayotidagi umumiy salbiy holatlarning aniq bir ko'rinishi bo'lgan qo'shib yozishga qarshi harakatlarni to'xtatish, "temir intizom" bilan milliy kadrlarni jazolab, erkin fikrlaydigan ziyolilarni jilovlash, respublikalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarni bo'g'ib tashlash, milliy ong, fuqaroning faolligini ham bir tizginda ushlab turishdan iborat edi.

70 yildan ziyod davom etgan sovet mustabid tuzumi va Kommunistik partiya yakka hukmronligi davrida milliy urf - odatlar va an'analarga ham zarba berildi. AKShning Kolgeyt universiteti professori M.B. Olcott XX asrning 90 - yillarida SSSR o'rnida tashkil topgan birorta davlat mustaqillikka tayyor emas edi, deb hisoblaydi. U

XX asr 80-yillarida xalq ommasining qaramlik holatidan va ijtimoiy qiyinchiliklardan norozilik kayfiyati kuchayganini va bu O‘zbekistonda ham mavjud bo‘lganini jiddiy qabul qilmaydi².

SSSRda milliy tillarga bo‘lgan munosabatni o‘rgangan xorij olimlari “xalqlarning mustahkam ittifoqi” kabi sovet rasmiy mafkuraviy qarashlarini jahon taraqqiyotiga zid ekanligi va bu til masalasida ham yaqqol ko‘zga tashlanib turganligini tahlil eta olganlar. Ularning qarashlarida “rus tilida so‘zlashish va rus adabiyoti bilan tanishish sovet xalqlari madaniyatini havf ostida qoldirib, ularning milliy o‘ziga xos jihatlarini yemirmoqda, milliy shakllarini yo‘qotmoqda”³ degan fikrlar ustun turgan. P. Xensi, A. Shtromas, M. Olkottlarning ta’kidlashicha, “rus tilini boshqa millatlar o‘rganishi masalasi imkoniyat tariqasida emas, balki zaruriyat shaklida o‘rtaga qo‘yilgan edi”⁴. M. Olkott esa kelajakda umumiy til negizidagi «yagona kommunistik madaniyat»ni shakllantirish yo‘lidagi harakatlarni “hayoliy bir g‘oya” deb qaraydi⁵. Uning fikricha, SSSRning milliy masaladagi asosiy siyosati kishilar tarixiy birligining yangi shakli “sovet xalqi”ni shakllantirishga qaratilgan⁶.

KPSS mafkuraviy siyosatining SSSR xalqlari ma’naviyatiga jiddiy salbiy ta’siri natijasida jamiyatda madaniy - ahloqiy muhit zaiflashdi, ma’naviy qashshoqlik sovet jamiyatini o‘zini ham tobora inqirozga yetaklovchi kuchga aylana bordi. 1986 yilda O‘zbekiston FAning umumiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi, unda O‘zKP Markaziy qo‘mitasi mafkura kotibi R. Abdullayeva ma’ruza qilib, ziyolilarning faoliyati partiya talablari asosida olib borilmaganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Majlisda yoshlar ta’lim tarbiyasida mafkuraviy jarayonlarning yetarli emasligini ko‘rsatilgan holda, Amir Temur, Bobur Mirzo shaxsiga berilgan ijobiy ta’riflarga o‘zgartirishlar kiritilmagani va bu o‘tmishni ulug‘lash holatlariga olib kelayotgani, respublika olimlari bu holatlarini oldini olish uchun hech qanday choralar ko‘rmagani alohida ta’kidlanib o‘tiladi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining nashriyoti bo‘lgan “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan M. Mahmudovning “O‘lmas qoyalar” asari o‘tmishni qo‘msash, ulug‘lashdan iborat bo‘lgan asar ekanligi alohida ta’kidlanadi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashri bo‘lgan “Fan va turmush” jurnalida chop etilgan “Muchal” maqolasi fanga qarshi bo‘lgan ilohiylikda, “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali esa keyingi o‘n yil davomida biror marotaba ham diniy “muammolarga” bag‘ishlangan maqolalar chop etilmaganlikda ayblanadi.

Bunday qarashlar va harakatlar oxir-oqibatda milliy tillarning jamiyat hayotidagi mavqeini pasayishiga, xususan XX asrning 50-60 yillardayoq o‘zbek tili davlat

² Olcott M. B. Facing the future: twelve myths about Central Asia // Proceedings of the Central Asian Conference on Regional Cooperation 5-7 June, 1995, Jake Issyk-Kul, Bishkek, 1995. – P. 89.

³ Журнал матер. каранг: // Вопросы литературы. – М., 1983. - № 6. - С. 66.

⁴ Қаранг: Shtromas A. The Regal Position of Soviet nationalities E their Territorial Units accreting of the 1977 Constitution the USSR // The Russian Revive. –Stanford (Calif). Juki. 1978. Vol. 37. № 3.-P. 255-272.

⁵ Olcott M.B. Yuri Andropov and tne «National Qestion»//Soviet Studies, 1 Universiti of Glasgow, 1985. V. XXXVII.№1. - P.103.

⁶Olcott M.B. Yuri Andropov and tne «National Qestion» ... –P. 114.

idoralarida, yig'ilish va majlislarda deyarli muomaladan chiqib ketishiga, "qayta qurish" yillarida ham kompartiya o'zining cheklanmagan hukmronligini qo'ldan bermaslik mafkuraviy aqidalarni ro'kach qilib milliy tillarni davlat tili darajasiga ko'tarish masalasini rasmiyatchilik darajasiga chiqarib qo'yishiga, uzoq yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni «o'tmishning zararli sarqiti» sifatida ta'riflashiga, ma'naviyatning uzviy qismi bo'lgan dini "xurofot va bid'at" deb talqin qilinishiga va shu asosda millatlarni qaramlik holatida saqlab turishga ham asos bo'ldi va "umumsovet" marosimlari va bayramlari an'ana tusiga aylana bora boshladi. Bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan, uzoq yillar davomida nishonlab kelingan "Navro'z" bayrami ham aynan mana shu yillarda ta'qibga uchradi. XX asrning 80- yillarning o'rtalarida "Navro'z" bayramini O'zbekistonda umumxalq bayrami sifatida nishonlash masalasida paydo bo'lgan to'siqlar qattiq tortishuvlarga ham sabab bo'ldi. "Navro'z" bayramiga qarshi harakatlar ham milliy madaniyatlarni qoralash va cheklashga qaratilgan tadbirlarning biri edi. Islom diniga aloqasi bo'lmagan bayramga "diniy" degan tamg'a bosildi. Olib borilgan harakatlar natijasida 21 martdan 21 aprelgacha bo'lgan kunlarni "Navro'z" bayramini (chunki ateistik va antigumanistik kommunistik g'oyalar va tazyiq kuchli bo'lgan) "Insoniylik va tabiatni e'zozlash oyligi", deb e'lon qilish tavsiya etildi. Shu muddat ichida 1985 yil 25 iyulda mamlakatda "Xotira kuni" belgilanib, u har yili mart oyining so'nggi yakshanbasida nishonlash, "Birinchi pushta", "Birinchi ekin", "Don, maysa va suv kuni"ni, bolalarning "Boychechak" bayramini va boshqa marosimlarni o'tkazish belgilandi. Bu yillarda dinga va diniy qadriyatlarga, diniy idoralarni qattiq nazorat ostiga olish, ularning sonini kamaytirish va faoliyatini doimo nazorat ostida olib turish ham kuchaydi. Breker Xansning "Sovet Ittifoqida islom..." nomli maqolasida yozilishicha, sovet davlatining dinga nisbatan olib borgan siyosatida "O'rta Osiyoda islom o'chog'ini yo'q qilish, shu yo'l bilan mahalliy xalqlarning milliy ongi o'sishiga ta'sir etish maqsadlari ko'zlangan"⁶. Bunday fikrlar hind olimi Shamsuddin, pokistonlik olim Muhammad Anvar Xon va boshqalarning maqolalarida ham ilgari suriladi⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov dinning ma'naviy, ijtimoiy, tarixiy ildizlari, inson kamolotidagi o'rni va ahamiyati ustida to'xtab, mustaqil taraqqiyotimizning ilk bosqichlaridayoq quyidagi teran fikrlarni aytgan edi: "Islom inson poklanishi, ruhiy qudrat olishi, qalban uyg'onishi manbaidir. Shu paytgacha bizga din afyundir, deb kelishdi. Dindorlar quvg'in qilindilar. Ota-onasiga janoza o'qiganlar jazoga tortildilar. Xullas, ne hunarlar ko'rsatmasinlar islom yashashdan to'xtama-di. Nega? Chunki u bizning ongimiz, shuurimiz, hayotimiz, borlig'imizdir. Bugun ana shu din orqali vujudimizga musaffolik, dilimizga insho'lloh, poklik kirib kelmoqda. Axloq-

⁶ Bracer Hans. The Islam in the Soviet Union and the Soviet Union and the Soviet Policy towards the Middle East (EastWest Publishing Company Ltd). – New-York, State University, 1983. Vol. VIII. № 44. – P. 202.

⁷ Mohammad Anwar Khan. Muslims of Soviet Russia. A Survey // Central Asia. – Peshawar, 1985. N 16. – P. 1-18; Shamsud-Din. Soviet Religions Policy in Uzbekistan. Culture published by the Islamic Culture Board. – Hyderabad – India. 1984. Vol. LVIII. № 3. July. – P. 201-216.

odob, ma'rifat yana xonadonlarimiz fayziga, odamlar xislatiga aylanishida islomning o'rni benihoya bo'lmoqda"⁸.

Shu yillarda kishilar doimo e'tiqod qilib, toza pokiza saqlab kelgan muqaddas qadamjolarga kishilarning kelishi ham qattiq nazorat ostiga olindi. Masalan, o'sha davrda respublikada 74 ta muqaddas qadamjolar bo'lib, ularning faoliyati doimo partiya tashkilotlari va ma'muriy idoralar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Bu joylarda turli ateistik burchaklar sovet davlati "dohiy"larining hayotini yorituvchi muzeylar ham tashkil etilgan edi. Birgina Surxondaryo viloyatining o'zida 647 ta "yosh tarixchi", "yosh ateist", "yosh ma'ruzachi" to'garaklari faoliyat olib borardi. Ta'mirlanib, yonatrofi obodonlashtirilgan yodgorliklarga turli muassasa va idoralar joylashtirilar, tarixiy obidalarga "eskilik sarqiti" sifatida qaralar va asosan xo'jalik ehtiyojlari maqsadlarida, choyxona, do'kon, mehmonxona sifatida foydalanilardi.

Umuman, bu davrda respublika barcha asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jarayonlar bo'yicha ancha murakkab ahvolda bo'lib, hatto, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12 – o'rinni, daromad darjasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi.

1.4. O'zbekiston yangi rahbariyatining respublika mustaqilligi yo'lidagi harakatlari. O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi.

1990 yil bahori va yozida O'zbekistonda ham xalq ommasi oshkoralik va demokratlashtirish, o'zining tarixiy o'rni va hozirgi zamoni tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqib, o'zlarining milliy va ma'naviy qadryatlarini qayta tiklash, o'z haq-huquqlari, jumladan, o'z taqdirini o'zi belgilash hamda iqtisodiy va siyosiy jihatdan markazdagi ittifoq hokimiyati tuzilmalariga qaramlikdan xalos bo'lish huquqlarini amalga oshirishdan tobora ko'proq manfaatdor ekanliklari ayon bo'la bordi.

1989 yil 23 iyunda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari qilib saylangan I. Karimov yangi rahbar sifatida o'sha vaqtlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatli jarayonlarga befarq qarab tura olmadi. U faqat respublika manfaatini, mavjud ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirishni rahbar faoliyatidagi bosh mezon deb biladi va boshqalardan shuni talab qiladi. Mana shularning hammasi jamiyatda iqtisodiy va siyosiy islohotlarni ildam va samarali ravishda amalga oshira oladigan, respublika fuqarolarini davlat yo'li bilan ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishga, avvalo, qonun chiqaruvchi, ijro qiluvchi, sud hokimiyatlarining aniq-ravshan ajralib turishi hamda faoliyat ko'rsatishi asosida O'zbekistonning siyosiy suverenitetiga erishish yo'lini shakllantirish asosida mustaqil milliy o'zbek davlati tuzish choralarini

⁸ Qarang: Bizning o'z yo'limiz bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod I.A.Karimovning "Xalq so'zi" ro'znomasi savollariga javoblari // Toshkent haqiqati. 1991, 19 dekabr.

ko'ra oladigan institut-prezidentlik boshqaruvi institutini yaratish va tashkil qilishni zarur qilib qo'ydi.

1990 yil 4-6 iyunda KPSSning navbatdagi sezdigga tayyorgarlik ko'rish doirasida O'zbekiston Kompartiyasi XXII sezding birinchi bosqichi o'tkazildi. Sezdda respublika yangi siyosiy rahbariyatining shijoati va tashabbuskorligi yaqqol sezilib turdi. Sezdda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi, O'zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimov "Qayta qurishning borishi va asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston SSRning suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash vazifalari, mamlakat va jumhuriyatning yangi sistemasida O'zbekiston Kompartiyasining o'rni va mavqei haqida" siyosiy ma'ruza qildi. Ma'ruzada O'zbekistondagi ijtimoiysiyosiy va iqtisodiy vaziyatga quyidagicha baho berildi:

Ijtimoiy-siyosiy sohada ro'y berayotgan jarayonlar hammani tashvishga solmoqda. Qayta qurish tufayli yuzaga kelgan demokratiya va oshkoralik anarxiya va safsatabozlikdan yetarlicha himoya qilingan emas.

Intizom va tartib ko'ngildagidek emas, jinoyatchilik ko'paymoqda, odamlarning shaxsiy xavfsizligi, huquqlari va qadr-qimmatlari buzilmoqda.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning ahvoli yomonlashib bormoqda. Mehnat unumdorligi, milliy daromad pasaymoqda. Ehtiyoj buyumlari va kerakli xizmatlar bilan ta'minlanmagan ish haqining o'sishi pulning qadrsizlanishini kuchaytirmoqda. Chayqovchilik, poraxo'rlik, xufiyona iqtisodiyot keng yoyilmoqda. Mana shularning hammasi odamlarning, ayniqsa, kam daromadli aholi tabaqalarining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti.

Madaniy-ma'naviy turmushda qadrsizlanish ro'y bermoqda: omma siyosatga ko'proq qiziqib, uning faolligi oshib borishi bilan birga, jamiyatning g'oyaviy va axloqiy negizlarini buzishga, umuminsoniy qoidalar va milliy qadriyatlarni mensimaslikka urinish hollari kam emas. Mamlakatning barcha joylarida bo'lgani kabi respublikamiz mehnatkashlari ham mana shu buzg'unchilik jarayonlaridan tashvishga tushmoqdalar: xo'sh, jamiyatimiz qayoqqa qarab borayapti? Bu salbiy hodisalar nahotki qayta qurishning muqarrar natijasi, yo'ldoshi bo'lsa? Yoki bu narsa siyosiy rahbarlikdagi xatolar, islohotlarning aniq rejasi yo'qligi oqibatlarini payqash va ularning oldini olish mumkinligidan gumonsirash sababli emasmikin? Bu salbiy jarayonlar nahotki xatarli tomonga boraversa?

Biz O'zbekiston SSRning haqiqiy siyosiy suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yo'llarini va amaliy harakatlarini belgilab olishimiz kerak"⁹. 1990 yilda butun Sovet Ittifoqi iqtisodiyotida bo'lgani singari O'zbekiston iqtisodiyoti ham tanglik holatlari va inqirozni boshdan kechirayotgan edi. I.A. Karimov O'zbekistondagi tanglik holatini ta'riflar ekan, uning sabablarini quyidagicha teran tahlil qiladi: Shu qadar katta boyliklarga, ishlab chiqarish va fan-texnika

⁹ Karimov I. O'tmishdan saboq chiqarib, kelajakka ishonch bilan //

Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. 163-164 bet.

imkoniyatlariga, qulay iqlim sharoitlariga ega bo'lgan respublikamiz asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga – haqli ravishda tang holat, deb atalgan ahvolga tushib qolganining sababi nimada? *Nazarimda*, buning javobi shunday bo'lmog'i kerak: 30-yilarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishni ma'muriyatchilik, buyruqbozlik usullari g'alaba qozonib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlar tobora qaror topib bordi. Xo'sh, bu illatlar nimalarda namoyon bo'ldi? Avvalo shundaki, bizning respublikamiz asosan xom ashyo bazasi, sanoat ministrliklari va idoralarining mo'may xom ashyo manbai deb hisoblanar edi. O'lkaning mahalliy, ij-timoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmadi, ba'zan esa bu xususiyatlar pisand ham qilinmadi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekiston SSRning mavqei va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmadi"¹⁰. I.Karimov ma'ruzasida O'zbekiston SSRda bozor munosabatlarini joriy qilishning obektiv zarurligi alohida ko'rsatilib, unda shunday nuqtai nazar ta'kidlab o'tildiki, unga muvofiq, bozor iqtisodiyotiga o'tish aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan belgilangan chora-tadbirlar majmui bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur edi.

Respublikaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy rivojlantirish va millatlararo munosabatlarga doir muammolarning butun majmuini hal qilishda muhim bo'g'in-O'zbekistonning milliy davlatchiligini mustahkamlashdan, uning chinakam siyosiy mustaqilligini ta'minlashdan iborat deb hisobladi. Biroq mafkuraviy faoliyatning yaxlit va barqaror konsepsiyasi O'zbekistonda hali mavjud emas edi. Shu bois milliy madaniyatni qayta tiklash O'zbekiston Kompartiyasining asosiy mafkuraviy muammosi sifatida ilgari surildi. O'zbek tilini davlat tili sifatida tatbiq qilish sohasini kengaytirish, respublikada yashovchi barcha millatlar va elatlarning tiliga doir, shuningdek, milliy madaniy talablarni qondirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirilishi lozim edi. I.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston siyosiy rahbariyati respublikada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuldan chiqish choralarini Markazdan so'ramagan holda mustaqil ravishda belgilash yo'lidan bordi. Shunga ko'ra, respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilash bosh vazifalardan biri maqomida belgilandi. Dastlab 1990 yil 31 martda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining "O'zbekiston SSR hukumatining kelgusidagi faoliyati dasturi va O'zbekiston SSRning iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy mustaqilligini shakllantirishning asosiy konsepsiyalari to'g'risida" qaror qabul qilindi. 16 iyunda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida jumhuriyatning iqtisodiy mustaqilligi va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalariga bag'ishlangan kengash bo'lib o'tdi va unda I.A.Karimov nutq so'zladi. Shundan so'ng "O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasi"ni tayyorlashga kirishildi. "O'zbekiston xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari va bozor iqtisodiyotiga o'tishning qoidalari" loyihasi 1990 yil 17 oktabrda respublika matbuotida umumxalq muhokamasi

¹⁰ Karimov I.A. *O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*. –T.: O'zbekiston, 2011. 168 b.

uchun e'lon qilindi. O'zbekiston aholisi bu muhim hujjatni muhokama qilishda faol ishtirok etdi. 1990 yil 29 oktabrda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining bu haqdagi qarori qabul qilindi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning yangi siyosiy rahbariyati vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun xalq ommasiga tayangan holda iqtisodiy va siyosiy islohotlarni ildam va samarali amalga oshirish, aholini davlat yo'li bilan ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilish, O'zbekistonning siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligiga erishish asosida o'zbek xalqining milliy davlatchiligini barpo qilish yo'lida harakat qila boshladi. KPSS MK iyul plenumida (1990 yil 13-14 iyul) yangi saylangan KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi tarkibiga O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi I.A. Karimov ham kiritildi. (1991 yil 22 avgustda I.A. Karimov bayonot berib, KPSS MK Siyosiy byurosining hozirgi tarkibida qola olmasligini bildirdi.)

KPSS MK va partiya oliy siyosiy rahbariyatining belgilangan vazifalarni amalga oshirishdagi noizchilligi va ishdagi jiddiy kamchiliklari O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi, O'zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimovning KPSS XXVIII sezdida so'zlagan keskin tanqidiy nutqida o'z aksini topdi. KPSS XXVIII sezdining qarorlari va ko'pgina boshqa muhim masalalarning yechimi O'zbekiston vakillarini qanoatlantirmadi. Shu sababli, ilgari ham qaror qilinganidek, 1990 yil 7-8 dekabrda Toshkentdagi San'at saroyida O'zbekiston Kompartiyasi XXII sezdining ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda I.A. Karimov "Jumhuriyatlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda O'zbekiston Kompartiyasini tashkiliy-siyosiy jihatdan mustahkamlash va iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishga tayyorgarlik borasidagi vazifalar to'g'risida" ma'ruza qildi. O'zbekiston kommunistlarining sezdi "Siyosiy va iqtisodiy suverenitet uchun, ma'naviy yangilanish, ijtimoiy adolat va O'zbekiston aholisining munosib turmush sharoitini yaratish uchun" harakat dasturini qabul qildi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi boshqa respublikalardan orqada qolayotganligini e'tirof qilib, sezdi bu orqada qolishning sabablarini aniqlash, jamiyatni birlashtirish yo'lini topish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash, barcha dinlarning muxlislari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, oila, xotin-qizlarning ahvoli va yoshlarning kelajagi to'g'risida haqiqiy g'amxo'rlik ko'rsatish kerakligini aytib o'tdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston xalqi respublika rahbariyatining yuzaga kelgan vaziyatni barqarorlashtirish, iqtisodiy mustaqillikni, siyosiy suverenitetni ta'minlash borasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatladi. Buning sababi O'zbekiston rahbariyati xalqning xohishirodasini hisobga olishiga, uning manfaatlarini ko'zlab ish qilishga harakat qilganligida edi.

Umuman, yer sharining 1/6 qismini yetmish yildan ziyod vaqt davomida o'z izmida ushlab turgan kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlatining barham topishi, aslida XX asr siyosiy hayotida ichida shubhasiz eng katta siyosiy voqelik bo'ldi. Jamiyat taraqqiyoti va rivoji uchun mutlaqo xilof bo'lgan markscha-lenincha deb nom olgan "kommunistik g'oya", zo'rama-zo'raki birlashtirilgan, "sovet xalqlari"ni o'z ichiga

olgan imperiyani XX asr 80yillarida tanazzulga uchrashiga bosh sabab bo'ldi. XX asr so'nggida sovetlar mamlakatida yuz bergan ulkan siyosiy voqealar jahon taraqqiyotini ham o'zgartirib yuborib, qarama - qarshilik, sinfiy ziddiyat, o'zaro kamsitishlar va zo'ravonlikka asoslangan, besamar "sotsialistik taraqqiyot" yo'lini mahkam ushlagan, dunyoning oltidan bir qismida umumbashariy g'oyalarni rad etib, faqat kuch ishlatish va xalqlarni qaramlikda saqlab turish yo'lini amalga oshirib kelgan yirik va so'nggi imperiyalardan biri SSSRning parchalanib ketishi dunyoda yangicha siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy qiyofa kasb etdi. Mustamlakachilikning sovet uslubiga asoslangan mustabid imperiya o'rnida umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va demokratiyani taraqqiyotining asosiy yo'nalishi qilib olgan mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Yangi paydo bo'lgan MDH davlatlari o'zlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ma'naviy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydilar. O'zbekiston Respublikasining qaramlik asoratidan qutulib, davlat mustaqilligini qo'lga kiritganligi xalqimiz taqdirida ham buyuk o'zgarishlar yasadi.

Nazorat savollari:

1. XX asr 80 - yillari O'zbekistondagi ijtimoiy – iqtisodiy ahvol
2. Mamlakatdagi iqtisodiy inqirozlar va ularning respublikada aks etishi
3. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ularning barqarorlashtirish yo'lidagi dastlabki harakatlar
4. Ekologik holatning og'irlashib borishi sabablari va oqibatlar
5. Mustaqillik arafasida O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayoti
6. Iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lidagi dastlabki harakatlar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. T. 1. – 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. T. 2. – 382 b.
3. Karimov. I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. T. 3. – 366 b.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. - Toshkent: O'zbekiston, 1998. T. 6. – 429 b.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. T. 7. – 410 b.
6. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2001. T. 9. – 432 b.
7. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. - Toshkent: O'zbekiston, 2005. T. 13. - 448 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

9. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2011. - 440 bet.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili - buyuk kelajagimiz garovidir. Xalq so‘zi. 2012, 10 may.
11. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. -T., O‘zbekiston. 2015.
12. Azizxo‘jayev A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. –T., 2001.
13. Azizxo‘jayev A.A. Chin o‘zbek ishi. –T., 2003.
14. Kaxramonov T. Vozvrasheniye iz «ada». –T.: Yozuvchi, 2000.
15. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - T.: O‘zbekiston, 2005.
16. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
17. Yunusova X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). –T.: Abu matbuot-konsalt, 2009.
18. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.

3-MAVZU: Milliy davlat tizimining barpo etilishi, boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.

REJA:

2.1. O‘zbekistonda milliy davlat tizimining barpo etilishi va boshqaruvda yangi usullarining shakllantirilishi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.

2.3. O‘zbekistonning yangi siyosiy va davlat hokimiyati tuzilishi asoslarining yaratilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.

Tayanch iboralar: milliy davlatchilik, boshqaruv, siyosiy, davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat, siyosiy partiya.

2.1. O‘zbekistonda milliy davlat tizimining barpo etilishi va boshqaruvda yangi usullarining shakllantirilishi.

XX asrning 80 – yillari ikkinchi yarmida sobiq Ittifoqda ro‘y bergan tanazzul O‘zbekistonda Prezident lavozimini ta’ sis etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Prezident lavozimining joriy etilishi respublika mustaqilligi uchun kurash kuchaygan va milliy davlatchilik rivojida prinsip jihatdan yangi bosqichga o‘tilayotganligini anglatar edi.

Shu bilan birga, respublikada prezidentlik boshqaruvi hokimiyat mexanizmining samaradorligini, mamlakatdagi barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotning samaradorligini qat’iyan oshirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi lozim edi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi ko‘p millatli mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy holat og‘irlashib borayotgan bir davrda jamiyatni jipslashtirish yanada muhim edi. Bunday sharoitda siyosiy tizimning yangilanayotgan mexanizmi, avvalo, shunga ko‘maklashmog‘i, bu tizimning ishlarida ichki va tashqi siyosat, strategik yo‘nalishlar va ularni amalga oshirish sohasidagi amaliy ishlar mujassamlashib, yaxlit harakatga aylanishi lozim edi.

Respublikada prezidentlik lavozimi murakkab vaziyatda ta’ sis etildi. Qayta qurish, oshkoralik vaziyatida xalq xo‘jaligini rivojlantirish, aholiga zarur turmush sharoitlarini yaratib berishda ko‘plab murakkab, xalq qilinmagan muammolar borligi

aniqlandi. Ayrim viloyatlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyat izdan chiqqan, qonunni buzish hollari ko‘paygan edi. Xalq bunday noqonuniy xatti-harakatlarning zudlik bilan payini qirqishni talab qilayotgan edi. Bularning barchasi prezident lavozimini kechiktirmasdan joriy etishni talab qildi. O‘zbekiston SSRning birinchi Prezidenti istisno tariqasida respublika Oliy Sovetining 1990 yil 24 martdagi sessiyasida saylandi. Islom Abdug‘aniyevich Karimov yashirin ovoz berish yo‘li bilan O‘zbekiston SSRning Prezidenti etib saylandi.

Davlat hokimiyatining muhim subekti sifatida prezident lavozimining joriy etilishi, uning davlat funksiyalaridan kelib chiqib o‘z vazifalariga ega bo‘lishi, davlat mexanizmida, xususan, hokimiyat tarmoqlari tizimida o‘z o‘rni va rolini topishi hamda faoliyat yuritishining huquqiy asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi islohotlar va o‘zgarishlarni o‘z ichiga oldi. Bu yillarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini ta’ sis etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (Asosiy Qonuni)ga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimi demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitusion tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o‘zaro aloqasini takomillashtirish maqsadida ta’ sis etildi hamda uning konstitusiyaviy maqomi O‘zbekiston Respublikasining boshlig‘i etib belgilandi. Qonunda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitusiya va qonunlarga rioya etilishiga kafil bo‘lish, respublikaning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, mamlakat ichkarisida va xalqaro tashkilotlarda respublika nomidan ish ko‘rish, Oliy Kengashga har yili respublikadagi holat hamda ichki va xalqaro hayotning eng muhim masalalari yuzasidan haqida ma’ruzalar taqdim etish, ayrim shaxslarni lavozimga tayinlash va ozod qilish bo‘yicha vakolatlar, respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashi-ni ta’minlash, hukumatning qarorlari va farmoyishlari ijrosini to‘xtatib qo‘yish, qonunlarni imzolash, faxriy unvonlar berish, faxriy yorliqlar bilan mukofotlash, respublika fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etish, sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etish va boshqalar Prezident vakolatlari sifatida qayd etildi.

Prezidentlik instituti ta’ sis etilganidan so‘ng keng qamrovli islohotlar boshlandi. Birinchi Prezident I.Karimovning tashabbusi bilan mamlakatda yuzaga kelgan vaziyat va respublika manfaatlarini himoya qilish uchun 1991 yil 25 avgustda bevosita markazga bo‘ysunadigan respublika Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasini O‘zbekistonning yurisdiksiyasiga o‘tkazish, sobiq Ittifoq Ichki ishlar vazirligining O‘zbekiston hududida joylashgan ichki qo‘shinlarini bevosita Prezidentga bo‘ysundirish haqida Farmonlar qabul qilindi. Bu ham prezidentlik institutining tezkor va aniq maqsadli qaror qabul qilishga imkon beruvchi boshqaruv shakli ekanligidan dalolat beradi.

1991 yil 18 noyabrda prezidentlik saylovlarini tartibga soluvchi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonun¹¹ qabul qilindi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha respublikalar orasida birinchi bo‘lib, 1991 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobilik asosida saylov bo‘lib o‘tdi.

1992 yil 8 dekabrda prezidentlik institutiga oid qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIX bobida mustahkamlab qo‘yildi. Mazkur bob O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bag‘ishlanib, uning 89-moddasi Prezidentning davlat hokimiyati tizimida tutgan o‘rni hamda huquqiy maqomini belgilab berdi. Unda “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi” degan qoida mustahkamlandi.

Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevorini barpo etish hamda davlatning bosh islohotchi bo‘lishi zarurati o‘tish davrida Prezident zimmasiga katta mas’uliyat va strategik vazifalarni hal etishni yuklash barobarida uning yetarli vakolatlarga ega bo‘lishini ham taqozo etdi. Prezident davlat, ayni vaqtda, ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i sifatida islohotlarning tashabbuskori, yangilanish va o‘zgarishlar jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi.

Parlamentarizmning rivojlanishi bosqichma-bosqichlilik tamoyili asosida olib borildi. Aks holda ijtimoiy-siyosiy beqarorlik va hokimiyatlar muvozanati yo‘q paytda endigina faoliyatini boshlayotgan yosh parlament demokratik institut doirasidan chiqib ketib, siyosiy inqiroz keltirib chiqaruvchi vositaga aylanishi mumkin edi. Bunday sharoitda qonunchilik ikkinchi darajali vazifaga aylanadi, u faqat siyosiy kurashni davom ettirish yoxud lobbilar faoliyati uchungina ishlatiladigan qo‘g‘irchoqqa o‘xshab qoladi.

O‘zbek parlamentarizmi tarixiga nazar solsak, 1990-1994 yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, 150 deputatdan iborat edi. 1995-2004 yillarda Oliy Majlis nomi bilan atalgan 250 deputatdan iborat bir palatali parlament shakllantirildi. Bir mandatli hududiy saylov okruglaridan saylangan deputatlar tarkibida Xalq demokratik partiyasidan, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan, “Milliy tiklanish” partiyasidan deputatlar bor edi. Parlament fraksiyalari ilk bor tashkil etildi. Bundan tashqari, deputatlarning ma’lum bir qismi Qoraqalpog‘iston parlamenti, viloyatlar hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan saylandi. Shunga ko‘ra, fraksiyalar bilan bir qatorda parlament faoliyatida hokimiyatlarning vakillik organlaridan kelgan 120 deputatlik bloki ham bor edi. Deputatlarning yarmidan ko‘pi yilda 4 marotaba bo‘ladigan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyalari vaqtida qonunchilikni amalga oshirib, avvalgi ish o‘rinlarida o‘z vazifalarini ado etardilar. Oliy Majlisning muntazam va samarali ish faoliyatini uning Kengashi (prezidiumi), qo‘mitalari, komissiyalari, shuningdek, doimiy asosda ishlaydigan deputatlar ta’minlab turardi.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi. 1992. 1-son. 34-modda.

Bu davrda demokratik parlamentarizm madaniyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratildi, professional deputatlar, parlamentda xizmat qiluvchi yuksak malakali xodimlar tarbiyalandi, parlamentning obro‘-e‘tibori oshdi, qonunchilikning ilmiy bazasi ham rivojlana boshladi. Parlament mexanizmining ravnaqi, bir qator parlamentlik vazifalarining kuchaytirilishi, parlamentga qo‘shimcha vakolatlarning berilishi turli nazariyalardan kelib chiqib emas, balki to‘plangan tajriba asosida amalga oshirildi.

Parlament faoliyatini kuchaytirishga, shu jumladan, qonunchilik jarayonini to‘la professionallashtirishga, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning sifatini yanada oshirishga bo‘lgan ehtiyoj - ikki palatali parlament tizimiga o‘tishni taqozo etardi. Bundan tashqari, taqsimlangan vakilliklarga ham ehtiyoj tug‘ildi, ya‘ni quyi palata partiyalar vakillari bilan shakllantiradigan, yuqori palata joylardagi hokimiyat organlari vakillari (Qoraqalpog‘iston, Toshkent shahri va viloyatlardagi deputatlarning mahalliy kengashlaridan 6 kishidan) va mamlakat Prezidenti tayinlaydigan fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat hayotida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolardan iborat 16 nafar deputat (jami 100 nafar senator) bilan to‘ldiriladigan bo‘ldi.

Bu o‘zbek parlamentarizmi tarixidagi muhim davr edi, zero aynan mana shu davrda qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organining ishida birmuncha yuksak professional darajani ta‘minlashga doir imkoniyatlar aniqlab olindi. Bundan tashqari, bu davr murakkab tuzilmali parlamentga, hokimiyatning barcha shohobchalarida barqarorlik va ish meyorlarini saqlagan holda qonunchilik, davlat boshqaruvi va tashqi siyosat sohasida kuchli konstitusiyaviy hokimiyatning parlamenti darajasiga bosqichmabosqich o‘tish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini ham tasdiqladi.

Oliy Majlis 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 2002 yil 27 yanvarda referendum o‘tkazildi. Uning yakunlari asosida “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

2002 yil 12 dekabrda Oliy Majlisning 10-sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. 2003 yilning 24 aprelida esa “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘plangan parlamentarizm tajribasi, o‘zbek xalqining qadriyatlari va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlamentimiz vakolatlari va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

Shunday qilib, mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi.

Shu o'rinda Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar qabul qilishda ishtirok etganligini ta'kidlash lozim. Masalan, "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi va boshqa mustaqilligimizni huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan nihoyatda muhim bo'lgan bir qator qonunlarni qabul qildi.

Oliy Kengashning o'n ikkinchi sessiyasi 1994 yil 23 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994 yil 25 dekabrda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Uch bosqichda (1994 yil 25 dekabrda, 1995 yil 8 va 22 yanvarda) bo'lib o'tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko'p partiyaviylik asosida o'tkazildi.

Oliy Kengash o'rniga O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti - Oliy Majlis shakllantirilgan vaqtda Oliy Majlis tarkibida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 69 nafar, «Adolat» sotsialdemokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14, "Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan 7 nafar deputat bo'lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ikkinchi chaqiriq (2000-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhlarini ishtirokida bo'lib o'tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo'lgan "Vatan taraqqiyoti" partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputatni tashkil etgan "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi. Keyinchalik "Vatan taraqqiyoti" va "Fidokorlar" partiyalari bitta "Fidokorlar" partiyasiga birlashganligi munosabati bilan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraksiyalari a'zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraksiyani tashkil etdilar.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. Bugungi kunga kelib, Oliy Majlis palatalari faoliyatining huquqiy asoslari to'la shakllandi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qonun chiqaruvchi hokimiyatning salohiyati o'sib, sifat jihatidan o'zgardi. Bu yillarda ko'p partiyaviylik asosida konun chiqaruvchi hokimiyatga saylovlar natijasida O'zbekistonda zamonaviy qonun chiqaruvchi hokimiyat karor topdi. Ta'kidlash joizki, ikki palatali parlament tashkil etilgach,

O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o‘z taraqqiyotida yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo‘lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraksiyalarida oldindan ko‘rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini e‘tiborga olish amaliyoti shakllandi.

1.2.O‘zbekistonda demokratik tamoyillar asosida milliy davlat boshqaruv tizimining yaratilishi va mustahkamlanishi

O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin o‘tgan yillar davomida barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyot va kuchli fuqarolik jamiyatiga ega demokratik huquqiy davlatni shakllantirish yo‘nalishida davlat boshqaruvi sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi aniq maqsadli vazifalar, bir tomondan, qonunlarni hayotga izchil tatbiq etish, fuqarolarning huquq va erkinliklari amalga oshirilishini kafolatlash, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qodir davlat hokimiyati va boshqaruvining ham vertikal, ham gorizontal samarali bo‘lgan tizimini yaratishni talab etardi. Ikkinchi tomondan, bu davrda boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berishga; ijro hokimiyati ayrim vazifalarini markaziy organlardan joylardagi davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga asta-sekin o‘tkazishga, ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot talablariga javob beradigan, qonunchilik va sud hokimiyati, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik qiluvchi boshqaruvning uyg‘un tizimini yaratishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar belgilanib, bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Birinchi bosqich (1991-2000 yy.) – o‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘lik birinchi galdagi islohot va o‘zgarishlarni o‘z ichiga oldi. Ushbu bosqichda o‘tish davrida hokimiyat taqsimlanishining konstitusiyaviy tamoyili asosida davlat boshqaruvining tubdan yangi tizimi yaratildi hamda iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-madaniy va ma‘muriy-siyosiy qurilish sohasida yangi boshqaruv tuzilmalari shakllantirilib, mustahkamlandi. Boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechib, ijro hokimiyatning butun tizimi va mexanizmini bosqichma-bosqich isloh qilishga kirishildi. Birinchi bosqichga xos asosiy xususiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning yangi tizimiga o‘tish, o‘tish davrida milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadida ijro etuvchi hokimiyatining kuchli, markazlashgan tizimini barpo etishdan iborat edi. Eng muhim masala yangi tuzumga ijtimoiy larzalarsiz, inqiroz holatlariga yo‘l qo‘ymay va vaziyat ustidan nazoratni saqlagan holda o‘tishni ta‘minlashdan iborat edi.

Mazkur bosqichda mamlakat oldida ikkita asosiy vazifa turar edi: bozor munosabatlari va demokratiya talablariga muvofiq ravishda davlat apparatini qayta tashkil etish, ayni paytda, barqarorlikni saqlab, samarali islohotlar uchun shart-sharoit yaratish.

Ushbu bosqich davomida totalitar tizimdan demokratik tizimga, qat'iy ma'muriyatchilik va buyruqbozlikdan iqtisodiy dastaklar va rag'batlar asosida o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tartibga solishga murakkab, ba'zan og'riqli o'tish amalga oshirildi. Birinchi bosqichda davlat boshqaruvining yangi tizimi yaratildi. Milliy shart-sharoitlar talabiga javob beruvchi, 1992 yil 9 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi asosida hokimlik instituti yaratildi, u joylardagi vakillik va ijro hokimiyatining yagona to'laqonli organi hisoblandi.

1993 yilda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hukumatning huquqiy maqomi belgilanishi borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu Qonunda va qator meyoriy-huquqiy hujjatlarda Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy tamoyillari, tarkibini shakllantirish tartibi, hukumatning vakolatlari va davlat hokimiyatining boshqa organlari bilan munosabatlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi apparatini takomillashtirish masalalari mustahkamlandi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga, qonunga muvofiq, Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining rahbarlari, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari rahbarlari kiritildi.

1993 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, joylardagi vakillik va ijroiya organlari boshliqlarini saylash va bo'shatish, joylardagi davlat hokimiyati organlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan munosabatlari, viloyat, tuman va shahar mol-mulki va moliyaviy resurslarni shakllantirish tartibi, xalq deputatlari Kengashi va hokimning byudjetga oid huquqlari, viloyat, tuman va shahar byudjetining daromadi va xarajatlari kabi masalalar tartibga solindi.

1994 yilda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi joylardagi davlat hokimiyati vakillik organlari tizimini mustahkamlash sohasidagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Ushbu davrdagi asosiy vazifa davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashga imkon beruvchi samarali davlat boshqaruvini tashkil etish uchun shartsharoitlarni yaratishdan iborat edi. Makro darajada raqobat muhitini, biznesni rivojlantirish, mamlakatda xorijlik investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratishni anglatadi.

Ikkinchi bosqich (2001-2010 yy.) – iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida qabul qilingan bir qator qonunlari va Prezident Farmonlari sud hokimiyatini shakllantirishga qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining

“Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik protsessual, Xo‘jalik protsessual, Jinoyat,

Fuqarolik, Mehnat, Oila, Uy-joy kodekslari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudlarining tarkibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmonlari ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishning ushbu bosqichidagi eng muhim vazifalar sifatida boshqaruv tuzilmalarining vazifalarini o‘zgartirish, ularning hokimiyatga oid, tartibga solish va nazorat qilishga oid vakolatlarining to‘xtatilishi va tubdan qisqartirilishi, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subektlarning faoliyatiga aralashuv va tartibga solishga yo‘l qo‘ymaslik kabi vazifalar belgilandi.

Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va “Xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari va yana bir qator Farmon va Qonunlar e‘lon qilindi. O‘zbekistonda ma‘muriy islohotlarning mutlaq yangi bosqichini boshlab berish asnosida, davlat va xo‘jalik boshqaruvi maqomini, ularning asosiy vazifalari va ushbu tashkilotlarning (vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, qo‘mitalar, markazlar va inspeksiyalar) ro‘yxatini meyoriy-huquqiy belgilash asosida ularning funksiyalarini ajratib berdi.

2003-2004 yillarda o‘tkazilgan ma‘muriy islohotlar jarayonida 20 ga yaqin davlat boshqarmasi qayta tashkil qilindi, 40 mingga yaqin boshqaruv xodimlarining shtat birliklari qisqartirildi. Bu, ma‘lum ma‘noda, korxonalar va tadbirkorlik tuzilmalarini ularning faoliyatiga byurokratik aralashuvlarning turli shakllaridan himoya qilish imkonini berdi. Iqtisodiyot, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish borasidagi yangi vazifalar, barcha hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligini kuchaytirish zaruriyati davlat boshqaruvi organlarini munosib takomillashtirilishini taqozo etar edi.

Davlat, ijtimoiy-iqtisodiy qurilish, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish masalalarini hal qilishda O‘zbekiston Respublikasi hukumatining roli va mustaqilligining kuchaytirilishi 2003 yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga tuzatishlar kiritilishi va ular asosida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishiga sabab bo‘ldi.

Ijro hokimiyatini modernizatsiyalash maqsadida ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti egallagan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimi bekor qilindi. 2003 yilda O‘zbekiston

Respublikasi Konstitusiyasidan mamlakat Prezidenti bir paytning o‘zida Vazirlar Mahkamasi Raisi hisoblanishini belgilovchi norma chiqarib tashlandi. Qonunchilikdagi o‘zgarishlarga muvofiq, Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash Oliy Majlisning ikki palatasi vakolatiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining nomzodini tavsiya qiladi.

Ayni paytda avval Prezident tomonidan tayinlangan va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadigan Vazirlar Mahkamasi a'zolarining nomzodi bugungi kunda davlat rahbari tomonidan Bosh vazir taqdimiga ko'ra tasdiqlanadi. 2003 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga kiritilgan tuzatishlarga ko'ra, belgilangan ushbu tartib eng zamonaviy va demokratik talablarga, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqiy rivojlanish darajasiga mos keladi. Oliy Majlisga va uning yuqori palatasi – Senatga xorijdagi diplomatik vakolatxonalarining rahbarlarini tayinlash, Milliy xavfsizlik xizmati raisini tasdiqlash, amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish va boshqa vazifalar topshirildi.

Yangi shakllantirilgan Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Oliy Majlis palatalariga o'z vakolati davridagi faoliyat dasturini taqdim qiladi; O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini va unga kiritiladigan o'zgarishlarni ishlab chiqadi hamda mamlakat parlamentiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

Qabul qilingan qonunlarga ko'ra, Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil qiladi, balki Mahkama faoliyatining samaradorligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi, Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlariga raislik qiladi, uning hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Davlat boshqaruvi islohotlarning ushbu bosqichidagi eng muhim natijalarni boshqaruv tuzilmalari funksiyalarining o'zgarishi, ularning hokimiyatga xos, tartibga soluvchi va nazorat vakolatlarining to'xtatilishi va tubdan qisqartirilishi, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subektlarning faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashuv va tartibga solishga yo'l qo'ymaslik tashkil etadi. Ushbu bosqichda viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimliklari faoliyatining samaradorligini oshirish va tarkibini takomillashtirish, ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirildi.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini, shuningdek, huquqiy himoya tizimini takomillashtirish va tadbirkorlik subektlarining moliyaviy mas'uliyatini erkinlashtirishga yo'naltirilgan qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Adliya organlari bilan hamkorlikda tadbirkorlikni, 2005 yildan boshlab esa prokuratura organlarini huquqiy himoyalash tizimi yaratildi. Ushbu choralar davlat va nazorat organlarining korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga aralashuvini tubdan qisqartirish va tadbirkorlik subektlarining iqtisodiy erkinlik va huquqlarini jiddiy tarzda kengaytirishga olib keldi.

Tadbirkorlik va xususiy mulkni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat organlari tashkil qilindi, ushbu organlarning tadbirkorlik subektlarini moddiy-texnik va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash borasidagi faoliyati takomillashtirildi.

2011 yili O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga yangi tuzatishlar kiritildi, ular davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirishga, shu jumladan, ijro hokimiyatini yanada modernizatsiyalashga qaratilgan edi. Konstitusiyaning yangi

tahrirdagi 93-moddasiga ko‘ra, Prezident vakolatlaridan ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzish va unga rahbarlik qilish huquqi, shuningdek, Bosh prokuror o‘rinbosarlarini lavozimiga tayinlash va bo‘shatish huquqi chiqarildi.

Tuzatishlarga muvofiq, Prezident endilikda faqat Bosh vazir taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlashi hamda lavozimidan ozod etishi ko‘zda tutildi. Bundan tashqari, davlat rahbari vakolatlariga Hisob palatasi raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish kiritildi.

Asosiy Qonunning 98-moddasida Bosh vazir lavozimiga nomzod ko‘rsatish va uni tasdiqlashning yangi tartibi o‘rnatildi. Endilikda Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko‘p deputatlik o‘rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqqanidan keyin o‘n kun muddat ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi. Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

Ishonchsizlik votumi instituti O‘zbekistonning huquqiy tizimida yangilik bo‘ldi. Bunda, Bosh vazir bilan Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda, Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Ishonchsizlik votumi bildirilgan taqdirda Prezident Bosh vazirni lavozimidan ozod etish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste‘foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng parlament palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi. 78-moddaga kiritilgan tuzatish Oliy Majlis palatalariga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish vakolatlarining berilishini ko‘zda tutadi. Ushbu qoida ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan parlament nazoratini sezilardi ravishda kengaytirdi.

1.3.O‘zbekistonning yangi siyosiy va davlat hokimiyati tuzilishi asoslarining yaratilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.

Mahalla mamlakatimizda ko‘p asrlardan buyon mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyingina u munosib ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo‘ldi.

1992 yilda Prezidentimiz Islom Karimovning Farmoni bilan “Mahalla” Respublika xayriya jamg‘armasi tashkil etildi, 1993 yilda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganining o‘ziyoq mahalla institutining davlat tomonidan qo‘llabquvvatlanayotganining yorqin dalilidir.

Jamiyat taraqqiyoti takomillashgan sari hamda bozor munosabatlariga o‘tish davrida, ayniqsa, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga oid yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan ushbu qonunni ma’lum normalar bilan to‘ldirish ehtiyoji sezildi. Shu boisdan ham 1999 yil 14 aprelda O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida» yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 23 aprelda e‘lon qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 19 aprelda ishlab chiqilgan “Mahalla posboni” jamoat tuzilmalari va Vazirlar Mahkamasining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori mamlakatimizda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimining rivojlanishida muhim katta rol o‘ynadi.

Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning xotirjam mehnat qilishini ta’minlashda mahallaning xizmati katta. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishda fuqarolarning ongli ishtirok etishini maqsad qilib, 1999 yil 19 aprelda “Jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar, «mahalla posboni» jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to‘g‘risida”gi nizomlarni tasdiqlash haqida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinib, respublikamizning barcha hududlarida «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari tashkil etildi.

O‘zbekiston siyosiy tizimi zamonaviy siyosiy munosabatlar shartsharoitlari va omillariga moslashish hamda uyg‘unlashish sifatlariga ega. Mazkur jarayonning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan ko‘ppartiyaviylik tizimi bugungi kunda izchil rivoj topdi.

Siyosiy partiyalarning jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi roli va ahamiyati ortib borayotir. Partiyalar faoliyatining tashkiliy-huquqiy, moliyaviy shartsharoitlari mustahkamlanmoqda, ularning xalq orasidagi obro‘si ortib, davlat ahamiyatiga molik qarorlar qabul qilishdagi ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Oliy Kengash tomonidan

1991 yil 15 fevralda “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun-ning qabul qilinishi bilan mamlakatda jamoat birlashmalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun ilk bor mustahkam huquqiy asos yaratildi.

Sobiq ittifoqdosh respublikalarida bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham turli xil siyosiy guruhlar va harakatlar vujudga kela boshladi. Xususan, 1989 yilning 28 mayida “Birlik” xalq harakati tashkil etildi. Ushbu harakat ilk siyosiy jamoat birlashmasi bo‘lganligi uchun o‘z faoliyatida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘ydi. Ular faoliyat nuqtai nazaridan ko‘proq harakat emas, balki siyosiy partiyaga o‘xshab ketar edi. Harakat a‘zolari o‘sha paytdagi siyosiy vaziyatdan foydalanib, turli xil miting, namoyishlar o‘tkazish orqali o‘zlarini “xalqparvar” qilib ko‘rsatishga hamda shu yo‘l bilan soxta obro‘ olishga harakat qilar edilar. Aslida esa ushbu harakat Litva Respublikasida o‘sha paytda faoliyat yuritayotgan “Sayudis” tashkilotiga taqliddan boshqa narsa emas edi.

O‘zbekistonda milliy mustakillikning e‘lon qilinishi, ittifoqdan mustaqil davlat tuzilmalarining shakllanishi, sobiq kommunistik partiya tashkilotlarining butunlay tugatilishi natijasida fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatda xalq o‘z manfaatlari va siyosiy irodasini erkin bildirish, erkin ifoda etishi uchun huquqiy asoslar hamda munosib siyosiy muhit yaratilishi bilan siyosiy partiyalar ham tuzila boshladi.

1991 yilning noyabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunda saylovning ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilishi huquqiy jihatdan e‘tirof etildi. “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini ta‘minlab berishi natijasida mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning yuzaga kelish jarayoni boshlandi. Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya bu – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991 yilning 1 noyabrida bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida asos solindi. Qurultoy mustaqil O‘zbekiston tarixidagi muhim siyosiy voqea, ya‘ni O‘zbekiston XDP ta‘sis etilganligini e‘lon qilib, uning Dasturi va nizomini qabul qildi.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylikning rivojlanish tarixida o‘z o‘rniga ega partiyalardan yana biri O‘zbekiston “Vatan taraqqiyoti” partiyasi bo‘ldi. Ushbu partiya 1992 yil 24 mayda bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida tashkil topdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri bu – O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidir. Ushbu partiya 1995 yil 18 fevralda o‘zining birinchi ta‘sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning dasturi va Ustavi qabul qilingan. Ta‘sis qurultoyida avvalgi saylovlarda saylangan tashabbuskor guruhning 47 deputati ishtirok etib, ular “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining parlamentdagi fraksiyasini tashkil etdilar. Mustaqillik yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri – bu O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidir. Ushbu partiya 1995 yil 3 iyunda birinchi ta‘sis Qurultoyida tuzilgan.

2008 yil 20 iyun kuni O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi va O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib

o‘tdi. Unda asosiy masala O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasini birlashtirish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqilib, ikkala partiyaning birlashishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Qurultoyda partiyalarning maqsadli dasturiy vazifalari mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir biriga yaqin, ya’ni, milliy tiklanish va vatanparvarlik g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, milliy an‘ana va qadriyatlarni himoya qilish, asrab avaylash hamda rivojlantirish ekanligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston siyosiy tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib ulgurgan O‘zbekiston Liberal-Demokratik partiyasining (O‘zLiDep) Nizomi va dasturi uning 2003 yil 15 noyabrda bo‘lib o‘tgan Ta’sis Qurultoyida tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning o‘tgan yillar davomidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratilganini ko‘ramiz. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi hamda “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy qonuni shular jumlasidandir.

Nazorat savollari:

- 1.O‘zbekistonda milliy davlat tizimining barpo etilishi
- 2.Mustaqillik boshqaruvda yangi usullarining shakllantirilishi.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.
4. O‘zbekistonning yangi siyosiy va davlat hokimiyati tuzilishi
- 5.Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

19. Karimov I.A.O‘zbekiston:milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 1. – 364 b.
20. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 2. – 382 b.
21. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 1999. T. 7. – 410 b.
22. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2001. T. 9. – 432 b.
23. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005. T. 13. - 448 b.

24. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. -T., O‘zbekiston. 2015.
25. Azizxo‘jayev A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. –T., 2001.
26. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - T.: O‘zbekiston, 2005.
27. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.

Internet saytlari:

4. www.ziyonet.uz.
5. www.edu.uz.
6. www.google.uz.

3-MAVZU: O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.

REJA:

3.1. O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va uning bosqichlari.

3.2. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lining tanlanishi va uning huquqiy asoslarini yaratilishi. Mamlakatda tadbirkorlik sohasida islohotlar: yutuqlar va muammolar.

3.3. Mustaqillik yillarida ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishi, uning bosqichlari, yangi O‘zbekistonda sohadagi o‘zgarishlar, uning natijalari. Fan va ta’lim sohasidagi islohotlar.

3.4. Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minlash masalalari

Tayanch iboralar: islohot, iqtisod, bosqich, o‘zbek modeli, tamoyil, zahira, xususiyat, mintaqa.

3.1. O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va uning bosqichlari.

Sovet davlati boshqaruv tizimidan tortib kishilarning kundalik turmushiga daxldor bo‘lgan barcha katta-kichik masalalarni hal etishni o‘z zimmasiga olgani uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, xalq turmush darajasi kundan-kunga pasayib bordi. Iqtisodiyotdagi obektiv qonuniyatlarning ko‘r-ko‘rona inkor etilishi ishlab chiqarishning o‘shishiga salbiy ta’sir qilib, tanglikni keltirib chiqaruvchi omillarning zo‘rayib borishiga sharoit tug‘dirdi. Mulkka nisbatan davlat monopoliyasining o‘rnatilishi, tovar-pul mu-nosabatlaridan oqilona foydalana bilmaslik, uning o‘rniga ma’muriy taqsimlashga asoslangan partiya-davlat boshqaruv tizimining cheksiz hukmronligi xalqning bunyodkorlik xislatlari yo‘lida to‘g‘anoq bo‘ldi. Natijada, sobiq ittifoqda yillar davomida shakllangan xo‘jalik aloqalarining uzilishi ishlab chiqarish darajasining nihoyatda pasayib ketishiga olib keldi. O‘zbekistonni bu iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo‘liga chiqarish uchun, mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash kerak edi, vaziyat eski mustabid-rejali iqtisoddan yangi bozor iqtisodiga o‘tishni taqozo etardi.

O‘zbekistonning sharoiti va manfaatlari hisobga olingan holda yangi dasturlar qabul qilindi. O‘zbekistonning yangi tarixida birinchi dastur 1990 yil oktabr oyida O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining uchinchi sessiyasida qabul qilindi, u «O‘zbekiston xalq xo‘jaligini barqarorlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va bozor iqtisodiga kirib borishning tamoyillari», deb nomlandi.

Bu hujjatda quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- aholini ijtimoiy himoyalashning davlat tizimini barpo etish;
- respublika fuqarolarining hamjihatligini ta‘minlash, millatlararo do‘stona munosabatlarni mustahkamlash;
- O‘zbekistonning boshqa respublikalar bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarini teng huquqli va o‘zaro manfaatli asosda qayta qurish;
- boshqarishdagi buyruqbozlik usulidan voz kechib, iqtisodiy, ya‘ni manfaatni hisobga oladigan boshqarish usullariga o‘tish;
- moliya-kredit va soliq tizimini qayta ko‘rib, iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlovchi yangi moliyaviy vositalarni ishga solish;
- turli-tuman mulkchilik va har xil xo‘jalik yuritishga o‘tish;
- suveren va bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish;
- o‘z tabiiy va moddiy resurslariga tayangan holda ishlab chiqarishni bir yoqlama rivojlanishiga chek qo‘yib, bu ishlarning kompleks borishini ta‘minlash.

Dasturda yuqorida sanab o‘tilgan isloh tadbirlarini 3 bosqichda amalga oshirish mo‘ljallangan edi:

Birinchi bosqich - iqtisodiyotni barqarorlashtirish yuzasidan dastlabki favqulotda tadbirlarni 1990-1992 yillarda amalga oshirish va islohotlarga ilk qadam qo‘yish;

Ikkinchi bosqich - 1992-1993 yillarda bozor iqtisodining asosiy belgilarini shakllantirish, unga asos solish;

Uchinchi bosqich - 1994-1996 yillarda bozor mexanizmini, ya‘ni yangicha xo‘jalik yuritish usullarini keng quloqch yoydirish.

Bu dastur yetti yil davomida O‘zbekistonda bozor iqtisodini shakllantirishni nazarda tutgan bo‘lib, uni siyosiy mustaqillik yo‘lidan qaytmagan holda, ittifoqning iqtisodiy tizimi doirasida, uning salohiyatidan foydalangan holda amalga oshirish rejalashtirilgan edi. Ushbu dastur amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, yutuq va kamchiliklaridan qat‘i nazar, tanazzul alomatlari kuchaygan va boshboshdoqlik avj olgan davrda, birinchi navbatda, unda O‘zbekiston va respublika aholisining manfaati ustuvorligi alohida ko‘rsatilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu modelning asosiy tamoyillari, amalga oshirish yo‘llari, bosqichlari O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan ishlab chiqildi va u ilmiy asoslangan besh tamoyilda o‘z aksini topdi. Bu tamoyillar umumlashgan holda 1993 yilda I. Karimovning «O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» asarida e‘lon qilindi.

Birinchi tamoyil - iqtisodiyotning siyosatga nisbatan ustuvorligini ta'minlash. Bu qoida iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning barcha sohaları uchun poydevor vazifasini o'tashini, ya'ni O'zbekistonda iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo'lishini anglatadi. Tamoyilda iqtisodiyotning o'ziga xos obektiv qonunlari mavjudligi, ularni e'tiborga olmasdan ish yuritish mumkin emasligi aks etgan. Iqtisodiy qonunlarning obektivligini tan olib, xo'jalik faoliyatini ular talabiga mos holda yuritish - o'tish davri uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Iqtisodiyot o'z qonunlariga ega bo'lgani sababli uni siyosiy kurashlar, turli mafkuralar qurboniga aylantirmasdan, u mafkuraviy tazyiqlarsiz o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi lozim. Biroq, bu iqtisodiyotga siyosat ta'siridan tamomila holi deb qarashni bildirmaydi. O'zbekistondagi taraqqiyot zaruratidan kelib chiqqan siyosat iqtisodiyotga faol ta'sir qilishi lozim bo'ladi.

Ikkinchi tamoyil- davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, ularni amalga oshirish yo'lini ishlab chiqishi va unga izchillik bilan rioya etishi, eskilik taraf-dorlari qarshiligini bartaraf etishi shart. Bu qoida madaniy bozor iqtisodiyoti konsepsiyasiga tayanadi. O'zbekiston mustabid-rejali, ma'muriybuyruqbozlik uslubida boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin demokratik iqtisodiyot tomon borar ekan, G'arb mamlakatlari asrlar davomida boshidan kechirgan tarixiy jarayonni o'tashi shart emas. G'arbda «beayov va tartibsiz» bozor iqtisodiyoti «yovvoyi kapitalizm» nomini olgan va uzoq davr amalda bo'lgan.

O'zbekistonda esa madaniy bozor iqtisodiyotiga tartibli ravishda o'tish madaniy raqobatni shakllantirishi, sheriklik aloqalari, iqtisodiy barqarorlikning ustun bo'lishi, ommaviy farovonlik kabi belgilarga xos bo'lishi kerakki, ularni davlatning ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchi tamoyil davlat iqtisodiyotga minimal darajada aralashib, uni o'z holiga qo'yishi zarur, degan g'oyalarni inkor etadi va davlatning bu borada faolligini bildiradi. Jahonda davlatning iqtisodiy sohadagi funksiyasiga oid to'plangan tajriba demokratik jamiyatda davlatdan o'zga umummilliy manfaatni ifodalovchi siyosiy institut bo'lmasligini ko'rsatdi.

Uchinchi tamoyil - qonunlarning va ularga rioya qilishning ustuvorligini ta'minlash. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlarini hech qanday istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga so'zsiz rioya qilishi lozim. Bu tamoyilga ko'ra, qonunlar siyosiy hokimiyatni ta'minlovchi kuch, ularga jamiyat a'zolarini yuridik qonunlarga bo'ysundiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Qonunlar va qonun osti hujjatlar barchaning faoliyatiga tegishli, ammo ular ham eskiradi, ularni hayot taqozosiga ko'ra yangi qonunlar bilan almashtirish zarur, ya'ni qonunchilikka ijodiy yondoshuv talab qilinadi. Iqtisodiy hayotga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik yuridik qonunlarni ham o'zgartirib borishni talab qiladi. Uchinchi tamoyil talablari yangicha qonunchilikni yaratishni taqozo etadiki, bu birinchidan, O'zbekistonning milliy mustaqilligini, ikkinchidan, bozor islohotlarini amalga oshirish uchun huquqiy baza yaratadi. Uchinchi tamoyil siyosiy tizimning bozor iqtisodiyoti talablariga monand tarzda

demokratlashuvini bildiradi. Bu tizim sharoitida inson huquqlari, erki, farovonligini ta'minlash bosh vazifaga aylanadi.

To'rtinchi tamoyil- faol ijtimoiy siyosat o'tkazish. O'zbekistonda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholining demografik holatini hisobga olgan holda, uni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rish lozim bo'ladi. Bu tamoyil iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning dialektik aloqadorligiga tayangan holda sotsial siyosat yuritish zarurligini asoslaydi. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlashi, ijtimoiy sohaning rivojlanishi esa inson omilini faollashtirib, iqtisodiyotga kuchli ta'sir ko'rsatishi zarur. Ikki sohaning dialektik aloqadorligi ishlab chiqarishning moddiy va insoniy omillari yaxlitligidan kelib chiqadi. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli bozor iqtisodiyotidagi ijtimoiy yo'naltirilgan, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan bozor xo'jaligi bo'lishini anglatadi. Shu maqsad yo'lida yuritiladigan ijtimoiy siyosatning kuchliligi ijtimoiy adolatni ta'minlashi, kishilarda boqimandalik kayfiyatini bartaraf etishi va ularda faollikni yuzaga keltirish bilan jamiyatdagi sotsial inoqlikni, sotsial guruhlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni bildiradi. Bu siyosat inson omilini kuchaytirib shu orqali iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta'sir etadi.

Beshinchi tamoyil - bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil O'zbekiston modelining tamal toshi, uning asosiy mezonidir. Bozor iqtisodiga o'tish - bu mavjud iqtisodiy tuzumni ta'mirlab takomillashtirish emas, balki tamoman yangi bozor tizimini yaratishni bildiradi. Bu yo'l revolyusion emas, balki evolyusion yo'ldir. Bu o'tish davri bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uzoq davr ekanini bildiradi va odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasi hisoblanadi. Mazkur tamoyilga binoan islohotlar tadrijiy yo'l bilan, ular mustabid-rejali iqtisoddan sekin-asta bozor tizimiga o'tishini, ammo bu talofatsiz, larzalarsiz bo'lishini bildiradi. Shoshma-shosharlik bilan bozor qoidalarini hayotga joriy etib bo'lmaydi. Buning uchun tayyorgarlik va muayyan vaqt talab qilinadi. Bozor munosabatlari shakllanib ulgurmagan sharoitda mavjud aloqalarni buzib yuborish iqtisodni izdan chiqarishi, aholi turmushini keskin pasaytirib, sotsial to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Shu sababdan islohotlar evolyusion tarzda va sharoit hozirlanishiga qarab ketma-ket o'tkazilishi kerak. Sekin-astalik va ehtiyotkorlik qoidasi «falaj terapiyasi» tamoyilini inkor etadi. Bu O'zbekistonning yangi tuzumga, bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan milliy yo'li edi.

Ushbu milliy model o'ziga xos bo'lib, uni tanlashda mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti va salohiyatidan, xalqimizning tarixi, milliy urf-odatlarini, diniy e'tiqodidan kelib chiqildi. Bunda ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi mukammal o'rganildi va inobatga olindi.

«O'zbek modeli» mutaxassislar tomonidan ushbu atama 1993 yildan qo'llanila boshlandi, chunki bu davrdan boshlab O'zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar o'zida iqtisodiy o'sish bilan hamohang tarzda ijtimoiy-siyosiy

barqarorlikni mujassamlashtirgan edi. Bu ayniqsa sobiq Ittifoq parchalangan davrning dastlabki yillarida ko‘zga tashlanardi.

3.2.O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lining tanlanishi va uning huquqiy asoslarini yaratilishi. Mamlakatda tadbirkorlik sohasida islohotlar: yutuqlar va muammolar.

Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug‘urta bozori vujudga keldi. Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi «O‘zbekinvest» (1994 yil 13 aprel), «O‘zagrosug‘urta»(1997 yil 25 fevral),«Kafolat»(1997 yil 14 mart)kabi uchta yirik sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Prezident farmoni bilan 2002 yil 1 fevralidan boshlab sug‘urta tashkilotlarining 3 yil muddatga daromad solig‘idan ozod qilinishi mamlakatimizda sug‘urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish mulkchilik shakllarining, ko‘p ukladli aralash iqtisodiyot tuzilmalarining xilma-xilligiga asoslanadi. Bu raqobat bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch ekanligi, u ko‘p sonli bozor subektlarini talab qilishi bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi qonunida mamlakatimizda mulkchilikning quyidagi shakllari amal qilishi belgilab berildi:

1. Xususiy mulk. U o‘z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iborat.

2. Shirkat (jamoat) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek kooperativlarning, ijara, jamoat korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o‘z ichiga oladi.

3. O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkiga ma‘muriy hududiy tuzilmalarning mulki (kommunal mulk) kiradi.

4. Mulkning aralash shakllari.

5. Qo‘shma korxonalar, chet el fuqarolari, tashkilotlari, davlatlarining, shu jumladan chet el yuridik shaxslarining mulki¹².

O‘zbekistonda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqli ekanligi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichi yumshoq monetar siyosatning amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Yagona rubl hududida turib taklifning pasayishi oqibatlarini yumshatish, ishlab chiqarish hajmlari va aholi turmush darajasining keskin pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun markazlashgan va imtiyozli kreditlar yordamida ishlab chiqarishni subsidiyalashga majbur bo‘lindi. Shuningdek, milliy valyutaning oshirilgan almashuv kursini direktiv tarzda o‘rnatish, birlamchi ehtiyojdagi asosiy

¹² Qarang: O‘zbekistonning yangi qonunlari: Mulkchilik to‘g‘risidagi qonun. 1-son. – T.: Adolat, 1991.

tovarlarga narxni markazlashgan holda belgilash va ularni kartochka tizimi yordamida taqsimlash orqali iste'mol ham subsidiyalandi. Mamlakatning tashqi savdo siyosati ichki bozorni tovarlar bilan to'ldirish hamda inflyatsiyani pasaytirish muammosining hal qilinishini ko'zlar edi. Xususan, bu davrda import siyosati notarif cheklovlarining mavjud emasligi hamda import tariflarining yuqori bo'lmagan (bojxona qiymatining 5-10 foiz) darajasi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llabquvvatlash, tashqi savdoni uzoq xorijiy mamlakatlar bozorlariga yo'naltirish va shok terapiyasidan voz kechish natijasida dastlabki bosqichda iqtisodiy pasayish nisbatan katta bo'lmadi. 1993-1994 yillarda O'zbekistonning real yalpi ichki mahsuloti 1991 yilga taqqoslaganda 17,7 foizga pasayib, bu ko'rsatkich sobiq ittifoqning boshqa respublikalariga qaraganda ancha past edi.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda investitsiya faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Samarali investitsiya siyosatini amalga oshirish maqsadi tomon harakat iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlaridagi ustuvor yo'nalishlar va maqsadga erishish mexanizmlarini o'zgartirib bordi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi (1991-1995 yillar)YAIM hajmining kamayib ketishi, milliy valyuta devalvatsiyasi va inflyatsiya sur'atlarining o'sib borishi, rivojlanishda yuqori darajada beqarorlik bilan ajralib turdi. Investitsiya hajmi va ko'lami qisqarib ketdi. Bunday holatda xorijiy investitsiyalar ulushining katta qismi turli grantlardan iborat bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar deyarli mavjud emas edi.

Respublika byudjet mablag'larining investitsiya qilingan asosiy qismi (95 foiz) davlat sektoriga, iqtisodiyotning ustuvor rivojlanish sohalariga, strategik muhim obektlarni qurishga yo'naltirildi. Shuningdek, respublika byudjeti xarajatlar qismida salmoqli qismi (57,3 foizgacha) kadrlar tayyorlash, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash kabi davlat dasturlariga ajratildi. Davlat nazorati ostida iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim tarmoqlar moliyalashtirildi.

Eksport hajmining qisqarishi yalpi jamg'armaning qisqarishiga olib keldi. O'sha yillarda mavjud jamg'arma va ularni investitsiyalarga transformatsiyasi samarali amalga oshirilmadi. Natijada asosiy kapitalni ko'paytirish va samaradorlikni oshirishga asoslangan iqtisodiy o'sish sekinlashdi.

Iqtisodiyotni, shu jumladan, narx tashkil etishni erkinlashtirish, davlat mulkini xususiylashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklash islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida amalga oshirildi. Mustaqil taraqqiyot davrining dastlabki pallasidagi investitsiya jarayonlarida quyidagi masalalar hal etildi:

- amalga oshirilayotgan investitsiya hajmlarining qisqarib ketishiga barham berish va barqarorlashtirish;
- investitsiya jarayonlarini davlat byudjet orqali moliyalashtirishni qisqartirish;

-davlat kafolati ostida xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- investitsiya jarayonlariga mamlakat aholisi va tijorat banklarini keng jalb etish.

Davlat investitsiya siyosatining 1991-1995 yillardagi muhim jihatlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- kuchli moliyaviy siyosat olib borib, davlat byudjeti defitsiti minimum darajaga olib kelindi;

- byudjetdan moliyalashtirish o'ta muhim, davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan birinchi darajali ehtiyojlarga nisbatan qo'llanildi;

- iqtisodiyot tarmoqlarini, yirik korxonalarni rivojlantirish maqsadida byudjetdan beg'araz yordam berish amaliyotidan voz kechildi, buning o'rniga investitsiya kreditlaridan keng foydalanildi;

- O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlari jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash va malakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida har tomonlama qo'llab-quvvatlandi;

- markazlashtirilgan investitsiyalar boshqa ishlab chiqarish rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan, mahalliy yetkazib beruvchi va iste'molchilarni qo'llab-quvvatlaydigan ustuvor investitsiya loyihalarga yo'naltirildi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi (1996-2003 yillar)da investitsiya siyosatining maqsadi va ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish maqsadida nobyudjet manbalar orqali xususiy sektorga investitsiyalar amalga oshirildi;

- chet el investitsiyalarini jalb etish va mahalliy investorlar faoliyatini kengaytirish maqsadida qulay investitsion muhit yaratildi;

- inson kapitaliga, xususan, ta'lim tizimiga qilinadigan investitsiya miqdori ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi qator davlatlar va xorijiy shaxslar o'rtasida investitsiya bahslarini hal etish tartibi to'g'risidagi Vashington konvensiyasiga, investitsiyalar kafolati bo'yicha Seul konvensiyasiga qo'shildi, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon bankiga a'zo bo'ldi, Jahon savdo tashkilotiga kuzatuvchi sifatida qabul qilindi. Bir qancha hukumatlararo investitsiyalarni himoya qilish va rag'batlantirish, ikkiyoqlama soliq solmaslik kabi kelishuvlarni imzoladi.

1996 yildan boshlab korxonalar va tashkilotlar investitsiya faoliyatini jadallashtirish uchun iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish uchun har yili Investitsiya dasturi ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida quyidagilar investitsiya siyosatining asosiy natijalari bo'ldi:

- Markaziyosiy mamlakatlari orasida birinchi bo'lib Asaka shahrida avtomobil zavodi qurildi;

- Nukus, Ellikqal'a, Samarqand va Namanganda yirik to'qimachilik majmualari foydalanishga topshirildi;
- Navoiy-Uchquduq-Sultonuzdog'-Nukus va G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on yangi temir yo'l liniyalari qurildi;
- Toshkent-Andijonavtomobil yo'lining Qamchiq dovonidan o'tadigan qismi rekonstruksiya qilindi;

Bu davrda zamonaviy «O'zDEUavto» zavodining ishga tushirilishi bilan avtomobilsozlik sanoati tashkil etildi, bu esa iqtisodiyotni tarkibiy qayta o'zgartirilishining asosiy yakuni bo'ldi. «SamKochavto» (avtobuslar ishlab chiqarish), «Kabul-O'zbekKo» (paxta tolasini qayta ishlash), «O'zSamsung Elektroniks» (maishiy elektron apparatura), «Nestle O'zbekiston» (oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar), «Oltin Deri», «Shark-teks», «Supertekstil» to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi qo'shma korxonalar ishga tushirildi.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichi (2004-2011 yillar)da YAIM barqaror sur'atlarda o'sdi va 7 foizdan ortiqni tashkil etdi. Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar 2006 yildan boshlab ortib bordi va 2008 yilga kelib deyarli 30 foizga oshdi¹³.

2005 yilga kelib yangi iqtisodiy holat respublika investitsiya faoliyatida yangi vazifalarni qo'ydi. Ular quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan edi:

- to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari ulushini oshirish;
- yirik investitsiya loyihalarini o'zlashtirishni ta'minlash va ularni amalga oshirishni ta'minlaydigan yirik iqtisodiy agentlarni tashkil etish;
- yuqori qo'shilgan qiymatni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilishni ko'paytirish yuzasidan sharoitlar yaratish;
- investitsiya dasturini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;
- sog'liqni saqlash hamda boshlang'ich va o'rta ta'lim sohalarida yirik investitsiya loyihalarini o'zlashtirish;
- investitsiya faoliyatining rivojlanishida qimmatli qog'ozlar bozori rolini kuchaytirish;
- transaksion xarajatlarni kamaytirish;
- valyuta mablag'larini konvertatsiya qilish mexanizmini yanada liberallashtirish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (11.04.2005), «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (21.07.2005), «O'zbekiston

¹³ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2005-2011 yillar ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida» (02.05.2006), «Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy-industrial hududni tashkil etish to'g'risida» (02.12.2008), «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (24.08.2011), «To'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (10.04.2012), «Angren maxsus industrial hududini tashkil etish to'g'risida»gi (13.04.2012) farmonlari va bir qancha qarorlar qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichi 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoiti va ta'sirida amalga oshirildi. Mazkur inqirozning O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi o'z natijasini berdi.

Islohotlarning uchinchi bosqichida o'zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi o'sishida quyidagi omillar asosiy ahamiyatga ega bo'ldi:

- soliq yukining pasaytirilishi;
- korxonalarni xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirilishi;
- chet el investitsiyalarining hudud va tarmoq yo'nalishlariga ko'ra taqdim etilayotgan soliq va imtiyozlar rolining oshirilishi;
- hudud va tarmoq investitsiya dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi.

Investitsiyalar hajmi 2011 yili 2003 yilga nisbatan 3,1 barobarga ortdi. Bunda byudjetdan tashqari jamg'armalar investitsiyalari 54,6 barobar ko'paydi. Bu, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni bilan bog'liq bo'ldi.

Jamg'armaning asosiy vazifasi qilib iqtisodiyotning yetakchi, tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bilan bog'liq loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish deb belgilandi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investitsiyalarning barqaror o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi, tashqi inqirozlar ta'sirini minimallashtirish imkoniyatiga nisbatan xorijiy investorlarning ishonchi yuqoriligidan dalolat beradi. Chunonchi, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari 2011 yili 2003 yilga nisbatan 8 barobarga ko'paydi.

Islohotlarning uchinchi bosqichida bir qator yirik investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Jumladan, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi ishga tushirildi, Navoiy shahridagi aeroport rekonstruksiyasi yakunlandi, «Toshg'uzor-

Boysun-Qumqo'rg'on» temir yo'li ishga tushirildi, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati rekonstruksiya qilindi, Rezaksoy suv ombori qurilishi tugatildi.

Investitsiyalarning iqtisodiyot sohalari bo'yicha tarkibi o'zgardi. 2003 yilga nisbatan solishtirganda, investitsiyalar mashinasozlikda 12,2 barobar, qurilish materillari ishlab chiqarishda 10,2 barobar, yoqilg'i-energetika majmuida 5,4 barobar, oziq-ovqat sanoatida 4,2 barobarga ortdi. Shuningdek, bu davrda investitsiya siyosatida hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar, jumladan, ichki manbalar, xususan aholi jamg'armalari orqali investitsiya jarayonlarini faollashtirish, yuqori qo'shilgan qiymat mahsulotlari, ayniqsa, yuqori texnologik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlariga investitsiya-larni amalga oshirish, melioratsiya va drenaj ishlariga mablag'lar jalb etish, ikkilamchi qimmatlar qog'ozini bozorini tashkil etish, innovatsiyalarni yaratishga investitsiya resurslarini jalb etish kabilarga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro kuzatuvchilar O'zbekistonning investitsion faolligi va rivojlanish yo'li to'g'ri ekanini e'tirof etdilar. Islohotlarni amalga oshirish qiyinchiliklari va har bir bosqichning o'ziga xosligiga qaramasdan, O'zbekiston MDH davlatlari orasida yaxshi ko'rsatkichlarga erishdi. Mamlakatimizda investitsiya hajmi bo'yicha boshqa MDH davlatlari kabi keskin pasayishlar ro'y bermadi va MDH davlatlari ichida 1995 yildan beri investitsiya hajmi indeksi salbiy miqdorni ko'rsatmagan yagona davlat sanaladi.

Mustaqillikka erishish arafasida va mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasida iqtisodiyotimizda jiddiy tarkibiy deformatsiyalar mavjud bo'lib, ular orasida sanoatning haddan ortiq tarzda xom ashyoga yo'naltirilgani ajralib turardi.

O'zbekiston oldida ishlab chiqarishning iqtisodiy tarkibini tubdan qayta qurish, xom ashyo va qayta ishlovchi sohalari o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, jahon xo'jaligiga kirib borishga qodir bo'lgan diversifikatsiyalangan sanoat kompleksini shakllantirish muammolari paydo bo'ldi. Tarkibiy o'zgartirishlarning ustuvor vazifasi - sanoatning va alohida import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishning strategik jihatdan muhim bazaviy sohalari qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish edi. Hukumat tomonidan joriy jarayonning voqeliklarini obektiv jihatdan hisobga olishga asoslangan va o'tish davridagi yo'qotishlarning minimal darajasini ta'minlaydigan chora-tadbirlar ishlab chiqarildi va amalga oshirildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning asosiy sohalari bo'lgan energetika, neft va gaz sanoati, oltin qazib olish va kimyo sanoatini, qora va rangli metallurgiya korxonalarini qatorida qayta ishlash sanoati sohalari jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish asosida mamlakatning asosiy tabiiy va mineral xom ashyo resurslarini ko'proq ishlab chiqarishga jalb qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. 1999 yildan boshlab iqtisodiyotning real sektorida mulkchilikning yangi shakliga o'tish bo'yicha choralar amalga oshirildi. Buning uchun iqtisodiyotning asosiy sohalari bo'lgan yoqilg'i-energetika majmuasi, metallurgiya sanoatining yirik korxonalarini xususiylashtirildi. Iqtisodiyotning asosiy sohalariidagi yirik investitsion loyihalarining ro'yobga chiqarilishi va yangi qayta ishlovchi korxonalarining faol jalb qilinishi iqtisodiyotdagi o'sish darajasini bir meyorda oshishiga turtki bo'ldi. Sanoat

mahsulotlari eksportining oshishi hisobiga ijobiy to'lov balansi shakllandi, va oltin zaxiralari oshdi. Valyuta bozorining liberallashtirilishi va shuning doirasida 2000 yilga qadar davlat valyuta almashtirish kursi va valyuta operatsiyalarini qat'iy ma'muriy nazorat qilish eksport hajmining ko'payishini va chet el valyutasi kirib kelishi rag'batlantirdi. Milliy valyutani devalvatsiya qilish, uning konvertatsiya bo'lishini ta'minlash orqali birja va birjadan tashqari ayirboshlash kurslarini unifikatsiya qilish masalalari hal etildi.

Valyuta bozorining liberallashtirilishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotning real sektoriga nisbatan pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va bank tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Valyuta siyosatining liberallashtirilishi va mahsulot ishlab chiqaruvchilarga nisbatan soliq yig'imlarining kamayishi o'sha davrdagi o'zgarishlarning asosiy natijalaridan biri bo'ldi. Joriy eksport-import operatsiyalari bo'yicha valyuta konvertatsiyasining muomalaga kiritilishi xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi va shu asosda qo'shma koronalarning rivojlanishi dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996-2003 yillarga qadar chet el investitsiyalari asosida ishlovchi korxonalar (CHEIAIK) soni 2,1 marta oshdi. Tarkibiy o'zgarishlarning birinchi bosqichida savdo faoliyatida chet el investitsiyasi asosida ishlovchi savdo va vositachilik korxonalari tashkil etish loyihalariga ko'proq e'tibor berilgan bo'lsa, keyingi bosqichda sanoatda shu (CHEIAIK) korxonalarining ulushi oshishi kuzatildi. Hozirda respublikamizda ishlayotgan korxonalarining 55 foizdan ortig'i iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektoriga to'g'ri keldi.

Shunday qilib, 2004-2007 yillarda tarkibiy islohotlar ko'lamini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha strategik vazifa ilgari surildiki, ular eksportga mo'ljallangan taraqqiyotni ta'minlashi lozim edi. Bunday ustuvor vazifaning amalga oshirilishi quyidagilar asosida iqtisodiyot tarkibida yanada sifatli yutuqlarga erishishni taqozo etadi:

- qo'shilgan qiymat o'sishi mexanizmini takomillashtirish, sohalar ichidagi yutuqlar unumini oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushini oshirish;

- ishlab turgan korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilashga, yangi qo'shma korxonalar tashkil etishga yo'naltiriladigan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini keng ko'lamda jalb qilish;

- mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini yanada rag'batlantirish, bu, o'z navbatida, eksport-import operatsiyalarini bojxonanarxlar yordamida boshqarishni takomillashtirishni, bojxona to'lovlarini unifikatsiya qilishni, soliq va bojxona boshqaruvini soddalashtirishni taqozo etdi.

Bu davrda oldingi bosqichlarda yaratilgan iqtisodiy salohiyatni yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratish bo'yicha muntazam choralar davom ettirildi va tayyor mahsulot eksportini yanada rag'batlantirish choralari amalga oshirildi.

Xususiylashtirish joriy bosqichining o‘ziga xos jihati shundaki, davlat mulkining, birinchi navbatda birja bozorlarida asosiy sohalar korxonalarining aksiyalarini sotish imkoniyatlari kengaydi, tanlovli savdolar o‘tkazish va investorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish mexanizmi jariy etildi. Natijada, bu holat aktivlarning yangi egalari faqatgina xususiylashtirilayotgan obektning qaytarma qiymatini (korxonaning o‘zini, aksiyalar paketini va hokazo) to‘lash majburiyatini emas, balki uni rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash majburiyatini ham yukladi.

2008-2011 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti jahonda yuz bergan moliyaviy inqiroz sharoitida rivojlandi, «iqtisodiyotimizning jahon xo‘jalik va moliyaviy-iqtisodiy aloqalarga o‘rib borayotgan sur‘atlar bilan kirishib ketayotganligini hisobga olganda jahon inqirozi, birinchi navbatda uning oqibatlari bizga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi va ko‘rsatib kelmoqda. Birinchi navbatda bu ta‘sir eksportga yo‘naltirilgan asosiy sohalarning va ular bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshash ishlab chiqarishlarning faoliyatida eksport qilinadigan mahsulotlarning muhim turlariga jahon bozorida talabning keskin kamayishi va narxlarning tushib ketishi bilan o‘z aksini topmoqda. Bu esa o‘z navbatida umuman iqtisodiyotning muvozanatlashuviga va samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, mo‘ljallangan loyihalarni amalga oshirishda, qo‘yilgan maqsadlarga erishishda muammolarni yuzaga keltirmoqda».

Global moliyaviy inqirozning salbiy ta‘sirini yengib o‘tish maqsadida hukumat tomonidan 2008 yildayoq Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Dasturga ko‘ra, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarining barqaror ishlashini qo‘llab-quvvatlash va ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Ichki talabni rag‘batlantirish bo‘yicha ham tegishli tadbirlar ishlab chiqilib, ularga ko‘ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar salohiyatidan to‘liq foydalanish maqsadida mahalliy lashtiriladigan mahsulot hajmini 3,5-4 baravar oshirish ko‘zda tutildi.

Iqtisodiyot sanoat sektorining jadal o‘shish sur‘atlari O‘zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy qayta o‘zgartirishlar ijobiy dinamikasini ta‘minladi. Umuman olganda, 1995-2011 yillarda sanoatning YAIM tarkibidagi ulushi 17,1 foizdan 24 foizgacha o‘ydi (1-rasm.)

Iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta o‘zgartirishlarning samaradorligi eksport tarkibida erishilgan ijobiy siljishlar bilan belgilangan. 1995-2011 yillarda xom ashyo eksportining ulushi sezilarli darajada, jumladan paxta tolasi 48,4 foizdan 9 foizgacha kamaydi. Tayyor mahsulotlar ulushi umuman olganda 7,1 foizdan 34,6 foizgacha oshdi, shu jumladan mashinalar va asbobuskunalarning ulushi 2 foizdan 6,7 foizgacha, to‘qimachilik mahsulotlari 3,1 foizdan 9,7 foizgacha, oziq-ovqat mahsulotlari 1,7 foizdan 13,2 foizgacha oshdi (2-rasm.)

Shu yillarda iqtisodiyotning sanoat tarmog‘ida nodavlat sektorining roli keskin ravishda o‘zgardi. Nodavlat korxonalarining sanoat subektlarining umumiy sonidagi

ulushi 1991 yildagi 17 foizdan 87 foizgacha oshdi, ulardan 30 foizi xususiy korxonalaridir. Hozirgi paytga kelib, nodavlat korxonalarida sanoat ishlab chiqarish xodimlarining 80 foizdan ortig‘i jamlangan bo‘lib, bu yerda sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 70 foizdan ortig‘i ular tomonidan shakllanadi.

3.3. Mustaqillik yilarida ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishi, uning bosqichlari, yangi O‘zbekistonda sohadagi o‘zgarishlar, uning natijalari. Fan va ta‘lim sohasidagi islohotlar.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning nazariy asoslari, strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, muammolari va ularning hal etilish yo‘llari dastlab Prezident I. Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li», «O‘zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarlarida o‘z ifodasini topdi.

O‘zbekistonning o‘z yangilanish va tarakqiyot yo‘liga asos qilib olingan yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo‘ldi. Bunda har qanday iqtisodiy islohotning natijasi halq manfaatlari va uning ijtimoiy himoyasini ta‘minlanishga qaratildi. Shu o‘rinda ijtimoiy himoyani bosqichmabosqich amalga oshirila boshlandi:

Dastlab 1991-1995 yillarda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va nooziqovqat mollarni iste‘mol qilish keskin kamayishi, ommaviy ishsizlik paydo bo‘lishining oldini olish, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ijtimoiy sohalar-sog‘liqni saqlash, ta‘lim, fan va madaniyat tarmoqlari doimiy ishlashini ta‘minlashga muvaffaq bo‘lindi.

Islohotlarning bu davrida bosqichida O‘zbekiston ijtimoiy himoya siyosatining asosiy vazifasi – imkon qadar yalpi ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslik hamda narxlarning erkinlashtirilishi natijasida aholi daromadlaridagi “yo‘qotishlar”ni kamaytirish bo‘ldi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va demografik xususiyat-larini hisobga olgan holda, iste‘mol bozorlari himoyasi va davlatning iste‘mol xavfsizligiga asos solindi. Asosiy oziq-ovqat va iste‘mol mollarning keskin kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun chegaralangan mahsulotlarning normalashtirilgan tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, himoya chorasi sifatida iste‘molchilarga subsidiyalar berish tizimi va iste‘mol bozoridagi asosiy oziq-ovqat tovarlarini mamlakatdan tashqariga chiqib ketishidan himoyalashning turli shakllaridan keng foydalanildi. Narxlarni erkinlashtirish sharoitida aholining xarid qobiliyatini himoya qilish uchun bu choralar muhim ahamiyat kasb etdi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida ishlashga moslashmagan ta‘lim hamda sog‘likni saqlash tizimi ham islohotlarning dastlabki bosqichida tub o‘zgarishlarni talab qilardi.

Bunda aholining sog‘lig‘i va ta‘lim darajasini bir butun tizim sifatida saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu davr ichida O‘zbekiston Respublikasi aholisining ijtimoiy ta‘minoti hamda himoyasining huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida” (20.11.1991), “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida” (13.01.1992), «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida» (02.07.1992), “Ta‘lim to‘g‘risida” (02.07.1992), “Mehnatni muho-faza qilish to‘g‘risida” (06.05.1993), “Davlat uy-joy fondini xususiylash-tirish to‘g‘risida” (07.05.1993), “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” (03.09.1993) kabi bir qator ijtimoiy muhim qonunlar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqichda (1996 - 2003 yillar) makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish, iqtisodiyotda tuzilmaviy o‘zgartirishlar, iste‘mol bozorini to‘yintirish orqali aholi turmush darajasini tadrijiy ko‘tarish uchun shart-sharoitlar yaratildi. 1996 yildan boshlangan iqtisodiy o‘shish aholi daromadlari o‘shishining tabiiy manbaiga aylandi. 1997-2003 yillarda aholining real pul daromadlari yillik o‘rtacha 22 foizdan o‘sdi.

Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari aholining umumiy ijtimoiy himoyasi o‘rniga ijtimoiy himoyaning manzilli shakllariga almashindi. Ish bilan ta‘minlash, aholi daromadlarini oshirish, inson kapitali salohiyatini oshirish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlariga aylandi.

*Ijtimoiy siyosat*ning ustuvor yo‘nalishlari aholining umumiy ijtimoiy himoyasi o‘rniga ijtimoiy himoyaning manzilli shakllariga almashindi. Ish bilan ta‘minlash, aholi daromadlarini oshirish, inson kapitali salohiyatini oshirish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlariga aylandi.

Narxlar o‘shishi munosabati bilan *maoshlarni indeksatsiyalash* soni keskin kamaydi. Indeksatsiya faqatgina byudjet tashkilotlari sohasida qo‘llana boshlandi. Iste‘mol subsidiyalari kommunal xizmatlarning ayrim turlarigagina saqlab qolindi. Aholi daromadlari tarkibida transfertlar ulushi kamaydi. Davlat aholi o‘rtasida tengsizlik kuchayishining xavfini kamaytirish maqsadida, faqatgina, uning *daromadlari darajasini* boshqarib turdi.

Qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash maqsadida qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta‘minlash dasturi ishlab chiqildi. Natijada aholining, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilarning, ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta‘minlanganlik darajasi oshdi. 1997-2003 yillarda aholining ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasi 36,8 dan 47 foizga, xususan, qishloq joylarda 36,8 dan 47 foizga, tabiiy gaz 69 foizdan 78,3 foizga yetdi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish O‘zbekistonda davlat suverenitetining iqtisodiy asosi bo‘lib qoldi. Bu yo‘lni shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Bundaavvalo, iqtisodiy islohotlarning qo‘yidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, milliy boyliklarning o'sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizim yaratish;

- ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, xususiy mulkka munosabatni o'zgartirish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o'sishi uchun asos bo'ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;

- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik ishlariga davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullarigabarham berish, iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlarni keng qo'llash;

- moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishni ta'minlaydigan chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;

- jahon iqtisodiy tizimiga qo'shib borish;

- yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, aholining dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatisamaralaridan bahramand bo'lish imkoniyatini yaratishdan iborat bo'ldi.

Mamlakat va millat rivojlanishi ilm-fan hamda jamiyatning intellektual salohiyatiga bog'liq. Jahon sivilizatsiyasiga daxldor bo'lgan eng zamonaviy ilmlarni egallamasdan, respublika milliy manfaatlariga xizmat qiluvchi fan sohalarini rivojlantirmasdan, fundamental, nazariy tadqiqotlar olib bormasdan jamiyatni taraqqiy ettirish mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston taraqqiyotida, amalga oshirilayotgan va barcha sohalarda sodir bo'layotgan islohotlar samaradorligini oshirishda muhim o'rin egalaydi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Iqtisodiy qiyinchiliklar, o'tish davri muammolariga qaramasdan, sovet tuzumi davrida shakllangan ilm-fan infrastrukturasi bir tomondan saqlab qolindi, boshqa tomondan uning yanada rivojlanishi uchun huquqiy, ma'naviy, iqtisodiy asoslar yaratildi.

Ilm-fan rivojiga mamlakat rivojlanishining ustuvor yo'nalishi sifatida qaraldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek, "jamiyatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Tarixan O'zbekiston Respublikasida shakllangan intellektual salohiyat XXI asr bo'sag'asida o'zining rivojlanish darajasi jihatidan, innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan hozirgi vaqtda jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgarilab ketgan"¹⁴. Ilm-

¹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent: O'zbekiston, 1998. 625-bet.

fanning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rnini belgilar ekan, Yurtboshimiz yuqoridagi fikrini davom ettirib, “Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi”,¹⁵ deb ta’kidlaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublika Fanlar akademiyasi oldida qisqa vaqt ichida ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish sohasida yaxlit fikrga kelish, uning zamonaviy talablarga mos tizimini yaratish, O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlarini mablag‘ bilan ta’minlashning samarali tizimini yaratish, ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnikaviy hamda tajriba bazasini rivojlantirish kabi aniq va muhim vazifalar turardi.

1991 yilga kelib O‘zbekiston Fanlar akademiyasida asosiy fondlarning 34 foizi, fondlar faol qismining 46 foizi yemirilib, ishdan chiqib bo‘lgandi. Ularni sotib olish uchun berilgan talabnomalar SSSR Fanlar akademiyasining moddiy-texnika ta’minoti idoralari tomonidan atigi 25-28 foizga qondirilgandi, xolos. Mazkur ehtiyojlar uchun valyuta mablag‘i deyarli ajratilmagandi.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida O‘zbekistonda ilm-fanning, xususan, Fanlar akademiyasining holati yuqoridagi darajada edi. O‘zbekiston hukumati bunday ziddiyatli vaziyatni o‘z vaqtida anglab yetdi. 1992 yil yanvarda O‘zbekistonda fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida Respublika Kengashi tashkil etildi. Ilm-fanning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini e’tiborga olib, mamlakat Prezidenti 1992 yil 3-4 mart kunlari bo‘lib o‘tgan Fanlar akademiyasining yig‘ilishida qatnashdi va nutq so‘zladi. Shuningdek, 1991-1992 yillarda O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish, uni xalqaro andozalar darajasida taraqqiy etishini ta’minlashga oid qator tadbirlar o‘tkazildi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1992 yil 18 fevraldagi Farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika Davlat qo‘mitasitashkil etilganini alohida ta’kidlash lozim. Shuningdek, mamlakat rahbarining 1992 yil 31 martdagi Farmoniga binoan Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) tashkil etildi.

1992 yil 5 mayda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi umumiy majlisida uning yangi Nizomi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992 yil 14 avgustda o‘z qarori bilan mazkur Nizomni tasdiqladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muassasalari va tashkilotlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 dekabrda yagona tarif jadvaliga muvofiq qayta ko‘rib chiqildi. Yangi Nizomga binoan, ilmiy-tadqiqotlar mavzulari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi muassasalari va tashkilotlarining takliflari asosida, fundamental tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish va saviyasini oshirishni, ilmiy ishlanmalarning amaliy ahamiyatini, ularning ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqligini hisobga olgan holda shakllantirilladigan bo‘ldi.

¹⁵ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 41-bet

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1992 yil 8 iyuldagi “Fan va innovatsiya faoliyatining rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni, uni amalga oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi VMning “Fanning rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari va innovatsion faoliyat haqida”gi qarori mamlakat ilmiy salohiyatini yanada ko‘tarishda muhim omil bo‘ldi.

O‘zbekistonda ilm-fanni yanada rivojlantirish, ish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yilda “Fan va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat Fanlar akademiyasi faoliyatini yaxshilash, umuman, ilm-fanning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Fanlar akademiyasi institutlarining 64 ta ishlanmalari xalq xo‘jaligi turli tarmoqlariga joriy etildi, yana 55 ta ish amalda foydalanishga tayyorlab qo‘yildi. Ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini bajarish uchun 1992 yilda davlat byudjetidan 440,1 mln. so‘m ajratildi. Bu 1991 yildagi mablag‘lar miqdoridan 366,4 mln. so‘m ko‘p edi.

O‘tish davri muammolarini hal qilish uchun eng avvalo O‘zbekiston xorijiy davlatlar bilan ilmiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi lozim edi. Shu maqsadda O‘zbekiston xukumati va Fanlar akademiyasining tashabbusi bilan 1992 yil 3 martda O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Prezidentlarining uchrashuvi bo‘ldi. Unda O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston Fanlar akademiyasi Prezidentlari Fanlar akademiyalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy hamkorligi to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekdilar.

Uchrashuvda birinchi Prezident I. Karimov ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalar xususida to‘xtalib, “O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish,- degandi I.Karimov,-davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarini bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir”¹⁶ deya ta’kidladi.

1991 yilning oxirlarida AQSH, Kanada, Fransiya, Polsha va Portugaliyadan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga hamkorlik shartnomalarini imzolash bo‘yicha takliflar keldi. 1992 yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 25 davlat bilan ilmiy-tadqiqot bo‘yicha hamkorlik qildi. AQSH, Kanada, Belgiya, Janubiy Koreya, Italiya, Germaniya bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatildi. 1992 yil may oyida respublika Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti va Kanadaning “Triumf” yadro markazi o‘rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik shartnomasi imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xorijdagi sheriklari bilan fundamental tadqiqotlar asosida hamkorlikda qo‘shma korxonalar va laboratoriyalar qurishga ham e‘tibor qaratdi. Masalan, AQShning Monsanto kompaniyasi muassasasi bilan respublika Fanlar akademiyasi Genetika instituti hamkorlikda biotexnologiyalardan foydalanish asosida

¹⁶. Karimov I.A.. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 1992. 24-bet.

“Monsanto” qo‘shma korxonasini barpo etdilar. Shu bilan birga Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlarining ilmiy safarlari ham ko‘payib bordi. Masalan, 1992 yilda 140 nafar xodim xorijiy ilmiy markazlarga safarga borgan bo‘lsa, xorijdan 216 nafar olim O‘zbekistonga keldi. 1992 yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xalqaro ilmiy ittifoq Kengashiga a‘zo bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ta‘lim sohasini isloh qilish mamlakat oldida turgan muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qabul qilindi. Davlat tomonidan quyidagilarni amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi:

- davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta‘lim olishni tashkil etish;
- ta‘lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish;
- barcha turdagi ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining keyingi bosqichdagi o‘quv yurtlariga kirishda teng huquqqa ega bo‘lishini ta‘minlash;
- boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalkaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega bo‘lishi;
- respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqqa ega bo‘lishi.

O‘zbekistonda ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta‘limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining majburiyligi;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasbhunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta‘lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta‘lim standartlari doirasida ta‘lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta‘lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo‘lish va iste‘dodni rag‘batlantirish;
- ta‘lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Ta‘lim sohasidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari uning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an‘analari va pedagogikasi, shuningdek, jahon xalqlari pedagogikasining ilg‘or yutuqlari asosida ta‘lim mazmunini tubdan o‘zgartirish, shu maqsadda o‘qituvchilar, pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar ochib berish va uni har tomonlama rag‘batlantirish, bilim va ko‘nikmalarining puxtaligini ta‘minlaydigan zamonaviy didaktik vositalar qo‘llashni keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yish, shu asosda ta‘lim mazmunini yaxshilashga erishishdan iborat bo‘ldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi. I bosqich – 1997-2001 yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-meyoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shartsharoitlar yaratildi. Buning

uchun davlat tomonidan qo‘shimcha ravishda 65 milliard so‘m mablag‘ sarf qilindi. Bu bosqich kadrlar tayyorlash dasturi-ning moddiy-texnik ba‘zasini yaratish davri deb nomlandi. II bosqich – 2001-2005 yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. Bu bosqich Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi deb nom oldi. III bosqich – 2005 yildan boshlanib, undan keyingi yillarni ham o‘z ichiga olmoqda. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosi yakuniga yetkazilib, erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, tahlil etildi hamda shu asosda yurtimizda yangi ta‘lim tizimi takomillashtirildi. Shu boisdan bu bosqich ta‘lim tizimini modernizatsiyalash davri deb ataldi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ydi:

- ta‘lim tizimida kadrlarning salohiyatini har tomonlama takomillashtirish hamda o‘qituvchilar, ustozlar va ilmiy xodimlarning professional nufuzini oshirish;

- ta‘lim tizimini tarkibiy qayta qurish, ta‘lim va professional dasturlarni tubdan o‘zgartirish, ta‘lim, fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi jahon yutuqlariga tayanish;

- majburiy o‘rta umumta‘lim, o‘rta maxsus, professional ta‘lim va tarbiya tizimiga o‘tishni ta‘minlash.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinganidan so‘ng respublikada butun ta‘lim tizimi, jumladan, oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash yo‘nalishi ham tubdan isloh qilishning aniq strategik dasturiga ega bo‘ldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining O‘zbekistonga xos eng muhim xususiyati – yangi turdagi 3 yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirildi. Zamonaviy o‘quv va ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta‘lim standartlari va axborot texnologiyalari, interaktiv usullar o‘quv jarayoniga tatbiq etildi.

Oliy ta‘limda bakalavriyat va magistratura tizimi joriy qilindi. Jahon standartlariga xos oliy ta‘lim tizimiga o‘tildi.

Ta‘lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuni bilan belgilangan bo‘lib, maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta‘lim, oliy professional ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta‘lim shakllarida tashkil qilindi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda nisbatan qisqa muddatlarda dunyoning yetakchi davlatlarida ta‘lim sohasida erishilgan ilg‘or yutuqlar, milliy an‘analarni o‘z ichiga olgan prinsip jihatdan yangi modeli tashkil qilindi. Yangi turdagi bilim yurtlari – akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tarmog‘i kengaytirilib, yangilari ishga tushirildi. Oliy ta‘lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashning ikki bosqichli tizimi bakalavriatura yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari joriy qilindi.

3.4. Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minlash masalalari

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar davomida jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Natijada, yuksak xalqaro obro‘-e’tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy o‘quv yurtlari Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi hamda muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Ushbu oliy o‘quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mexnat bozorida talabi yuqori bo‘lgan mutaxassislar tayyorladi va ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo‘ldilar.

2012 yil Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada ko‘plab yirik xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, jumladan, BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi dunyoning 48 davlatidan ta’lim tizimi rahbarlari, 8 ta xalqaro tashkilot va ta’lim jamg‘armalaridan 270 nafar vakil, olimlar hamda mutaxassislar ishtirok etib, uzluksiz ta’lim sohasini rivojlantirish va yosh avlodni barkamol tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O‘zbekiston tajribasini o‘rgandilar. Haqiqatan ham yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Konferensiya davomida quyidagi ko‘rsatkichlar e’tirof etildi: Ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmi o‘tgan davrda 500 mln. dollardan oshib ketdi. Osiyo taraqqiyot bankining 290 mln. dollar mablag‘i, Janubiy Koreya hukumatining 110 mln. dan ortiq, Jahon bankining 33 mln., OPEK fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 mln., Germaniya hukumatining “KFV” banki orqali yo‘naltirilgan qariyb 20 mln. va boshqalarning 100 mln. dollardan ortiq yordami ko‘rsatildi. Ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko‘nikmalarni egallashi, ayni paytda, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o‘zgarishlardan atroflicha xabardor bo‘lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o‘rganishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi barcha say-harakatlar dastlabki natijasi sifatida bir necha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan va shu bilan birga, o‘z fikrini ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta oladigan yangi mutaxassislar avlodi namoyon bo‘ldi.

Ta'lim sohasida, zamonaviy kadrlar talab qilinadigan tarmoqlar vakillari o'rtasida xalqaro hamkorlik ham rivojlanganligini ta'kidlab o'tmoq lozim. O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim sohasida alohida e'tirof etib kelinayotgan yutuqlar sifatida maktab ta'limi mamlakatda yashayotgan turli millatlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida olib borilayotganini ko'rsatish mumkin. Bunda har bir bitiruvchi majburiy ta'limdan so'ng o'z xohishiga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi va bakalavr hamda magistr darajasini olishi mumkin. Har bir kollej tegishli korxonalar bilan aloqa bog'lagan. Respublikaning har bir o'quv yurtida optik-tolali aloqa liniyalari asosida qurilgan yagona "Ziyonet" axborot ta'lim tarmog'ida ulangan axborot- resurs markazlari tashkil etildi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiysiyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlan-tirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilandi. "Hama narsa inson manfaatlar uchun" tamoyilidan kelib chiqib, ijtimoiy sohada aholi turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha yo'nalishlar belgilab olindi. Jumladan, qishloqlarda yangi tipdagi yosh oilalar uchun mo'ljallangan, maqbullashtirilgan yer uchastkasiga ega bo'lgan 2-3 xonali turar joy binolari loyihasi ishlab chiqildi. Qator shaharlarda "toza hudud" korxonalarini tashkil etilishi, ichki yo'llarni qurish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator tadbirlar ham amalga oshirildi. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilish maqsadida besh yillik alohida dastur qabul qilindi. Bir qator maktabgacha ta'lim muassasalari rekonstruksiya qilindi. Maktab tizimini qayta ko'rib chiqib, tajribali pedagog, ota-onalar bilan suhbatlashib, o'quvchilar bilan o'tkazilgan muloqotlardan so'ng 9 sinfni tamomlagan o'quvchilar uchun o'qishni ixtiyoriy ravishda kollej yoki litseyda yoki 10-11 sinflarda davom ettirish imkoniyatlari yaratib berildi.

Oliy ta'limni tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga yetkazish maqsadida oliy ta'limni kompleks rivojlantirishga qaratilgan Dastur, Farmon, Qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktabr PF-5847-son Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi.

Yuqridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilishning zamonaviy bosqichda innovatsion jarayonlarni qo'llash va amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, respublikada oliy ta'lim muassasalarini

samarali boshqarishning jahon standartlariga asosan ta'limda sifat menejmenti usullarini samarali qo'llash, globalashuv va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida ta'lim tizimi sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarini samarali innovatsion strategiyalar yo'nalishlarini ishlab chiqish, respublika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda samarali xorijiy tajribalarni yanada ommalashtirish asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalar ishlab chiqish, milliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish sharoitida respublikada oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim xizmatlari turlarini kengaytirish, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish asosida fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani yanada kuchaytirish, respublika oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga innovatsion mexanizmlarni tatbiq etish asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va amalga oshirish kabilar asosiy vazifalar qilib belgilandi. Natijada, 2019 yilga kelib 14 ta yangi oliy ta'lim muassasalari, 6 ta mahalliy, 8 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyati yo'lga qo'yildi. 40 ta yangi ta'lim yo'nalishlari hamda 41 ta mutaxassisliklar tashkil etildi. Respublika oliy ta'lim muassasalarida xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 55 ta qo'shma ta'lim dasturi doirasida yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashga kirishildi.

2017 yildan o'tgan davr mobaynida madaniyat va sport sohasida O'zbekistonning boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va iqtisodini yanada rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosati amalga oshirildi. Shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevralda "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi. Shuningdek, milliy-madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash va ko'paytirish, sanat va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzurida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi hamda Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

2017 yil 30 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvi yoshlar hayotida yangi davrni boshlab berdi. O'zbekiston yoshlarini bir maqsad sari birlashrib, safarbar eta oladigan "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" tashkil etildi. Ayni paytda yoshlar tarbiyasini mustahkamlash va ularni qo'llab -quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyul Farmoni qabul qilindi. Barcha darajadagi davlat xizmati organlarida, mahallalarda yoshlar masalalari bo'yicha xizmatlar tashkil etildi. 30 iyun mamlakatda "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

Yosh mutaxassis va tadbirkorlar faoliyatini rag‘batlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar joriy qilindi.

Xotin-qizlar masalasiga ham alohida e‘tibor qaratila boshlandi. 2017 yilda xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan bir qator tadbirlar o‘tkazildi. Aholining extiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi yetakchi muassasa sifatida belgilanib, unga tegishli vakolat va huquqlar berildi. Bir qator yangi mexanizmlar joriy qilindi, jumladan, uy – joyi bo‘lmagan yoki eski uylarda yashovchi respublikaning har bir tumani va shahridagi o‘rta hisobda 5 ta oilaga arzon uy-joylar berish, respublikaning har bir tumani va shahrida o‘rta hisobda 70 tagacha oilaga har yili maishiy texnika yoki bir boshdan qoramol xarid qilib berish, og‘ir kasalliklar mavjud bo‘lgan taqdirda tibbiy xizmatlar haqini to‘lash va har bir tuman va shaharda o‘rta hisobda 6 tagacha kam ta‘minlangan oilalarga beg‘araz yordam ko‘rsatish uchun mablag‘lar ajratish asosiy vazifa qilib belgilandi.

“Muruvvat” va “Sahovat” internat uylarida istiqomat qilayotgan nogironlar va keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida internat uylarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xomiylik kengashlari, shuningdek, Byudjetdan tashqari internat-uylarni qo‘llabquvvatlash jamg‘armasi tashkil qilindi.

Nazorat savollari

- 1.O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishidagi shart -sharoitlar
- 2.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta‘sirini oldini olish maqsadida 2009-2012 yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi o‘z natijalari
- 3.Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarini yaratilishi Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida amalga oshirilgan investitsiya siyosati 4.O‘tish davrining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 5.Ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishi, uning bosqichlari, yangi O‘zbekistonda sohadagi o‘zgarishlar, uning natijalari. Fan va ta‘lim sohasidagi islohotlar.
- 6.Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta‘minlash masalalari

Foydalanilgan adabiyotlar 1. Karimov

- 1.A.O‘zbekiston:milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 1. – 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 2. – 382 b.
3. Karimov. I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 3. – 366 b.

4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 1999. T. 7. – 410 b.
5. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. T. 15. - Toshkent: O‘zbekiston, 2007. - B. 318.
6. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yzida. T. 16. – T.: O‘zbekiston, -B. 365.
7. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma - bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. T. 17. - Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 280.
8. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. T.20.– Toshkent. O‘zbekiston, 2012. - B.320.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni baratarf etishning yo‘llari va choralari. –Toshkent. O‘zbekiston, 2009. - 22 bet.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2011. - 440 bet.
11. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
12. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
13. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. Toshkent: Ma’naviyat, 2011. B.272
14. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – T.: O‘zbekiston, 2005.
15. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Sharq, 2006.

Internet saytlari:

16. www.ziyonet.uz.
17. www.edu.uz.
18. www.google.uz.

\\

MAVZU 4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.

REJA:

4.1.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi takomillashtirish vazifalarini belgilanishi

4.2.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini belgilanishi

4.3.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish vazifalari

4.4.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanishi.

Tayanch iboralar: strategiya, jamiyat qurilishi, ustuvor yo‘nalishlar, liberallashtirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik, sud-huquq sohasi, amaliy tashqi siyosat.

4.1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi takomillashtirish vazifalarini belgilanishi

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi,

fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechib, bozor iqlohotlari bosqima-bochqich amalga oshirilgan va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgan makroiqtisodiy barqarorlikni iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xilmat qildi.

Ayniqsa 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi.

2017 yil 12 iyul kuni o'tkazilgan Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishi yig'ilishi qonunchilik palatasining faoliyatida keng islohotlar davrini boshlab berdi. SH.Mirziyoyevning mazkur uchrashuvdagi dasturiy ma'ruzasida parlament va hokimiyat vakillik organlari uchun yangi siyosiy yo'l belgilab berildi. Xususan, xalq bilan, xalqning o'zi tanlagan qonuniy vakillari bilan muloqotning tubdan yangi mexanizmi taklif etildi.

2017 yildan e'tiboran yangi demokratik institut-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojat bilan chiqish instituti joriy filindi. Ushbu teran siyosiy va yuridik mazmun-mohiyatga ega bo'lgan muhim institut parlamentning mamlakat hayotidagi roli va o'rnini chinakamiga oshirish, O'zbekistonni rivojlantirishning yangi siyosiy yo'lidagi muhim ustuvorliklar va vazifalar bo'yicha ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash uchun keng imkoniyatla eshigini ochdi.

Mamlakatimiz Prezidentining Oliy Majlisga har yili yo'llaydigan ana shu Murojatnomalarida belgilangan vazifalar miliy parlamentning butun deputatlar korpusining faoliyatini tubdan modernizatsiya qilishning asosiy negiziga aylandi. Ushbu vazifalarga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun ijodkorligi, nazorat – tahlil faoliyati sohasidagi ishlar qisqa muddatda qayta ko'rib chiqilib, sifat jihatidan yangi usul va shakllar joriy etildi. Xususan, Qonunchilik palatasi faoliyatida ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish kuchaydi. Parlament tarixida ilk bor yangi institut – “hukumat soati” joriy etildi. Bu parlament nazorati yuritishning yangi shakli – hukumatning har choraklik hisobotini eshitish deputatlar faoliyati samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Parlament tarixida ilk bor 2019 yildan boshlab Vazirlar Mahkamasining tegishli yilga mo'ljallangan davlat Dasturi bajarilishining borishi to'g'risidagi hisobotini ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Ushbu nazorat – tahlil tadbirlarining yakunlaridan kelib chiqqan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, qabul qilingan qarorlar ijro hokimiyati organlariga yuborildi. Ta'kidlash joizki, o'tkazilgan har bir parlament

nazorati tadbiri mansabdor shaxslar ishiga tanqidiy baho berishga hamda aniq takliflar ishlab chiqishga qaratildi. Mazkur tahlil-nazorat tadbirlari davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari tomonidan qonun va qonunosti hujjatlari talablariga qat'iy amal qilinishi ustidan parlament va deputatlik nazoratini o'rnatish imkonini berdi. Shuningdek, joylarda parlament nazoratini amalga oshirish deputatlarning saylov okruglaridagi saylovchilar bilan hamkorligining shakllari va usullari, ijro etuvchi hokimiyat organlariga mavjud muammolarni hal etishda ko'maklashish, hududlarda ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish mexanizmlari o'zgartirilib, mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat bilan boyitildi. 2017-2018 yillaring o'zida respublika-mizning 137 ta tuman va shaharidagi haqiqiy holat joylarida o'rganib chiqildi. Fuqarolarni tashvishlantirayotgan muammolarni tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni aniqlash uchun xonadonma – xonadon, uyma – uy yurilib, 400 ming nafardan ziyod fuqarolar hamda 14 mingdan ortiq tadbirkorlik subekti vakillari bilan suhbatlar o'tkazildi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Bunday harakatlar deputatlar faolligini ham oshirdi. Agar 2016 yil mobaynida deputatlar tashabbusi bilan jami 11 ta qonun kiritilgan bo'lsa, 2017 yil mobaynida bu ko'rsatkich 27 tani tashkil etib, 2,5 baravar o'sdi. Besh yillikda qabul qilingan hujjatlarning sifatini yaxshilash bo'yicha aniq choralar ko'rildi. Qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasi tashkil etish tartibi kiritildi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, ularga ilova qili-nayotgan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiy-lashtirishning yagona uslubi tasdiqlandi. To'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarda tizimlashtirilishi va unifiksiya qilinishi lozim bo'lgan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi.

Davlat rahbari tomonidan Qonunchilik palatasiga sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda mavjud vaziyatni yaxshilashga boshqosh bo'lish taklifi bildirildi. Sog'liqni saqlash, insonlarning sog'lig'ini ta'minlash, bu boradagi tibbiy xizmatlar sifatini oshirish masalalariga Quyi palatani mas'ul qilib belgilanganligi deputatlik korpusining faoliyatiga yangicha muhim yo'nalish olib kirdi. Qonunchilik palatasi huzurida Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni va dori vositalari ta'minotini yanada yaxshilash, ushbu sohadagi qonunchilikni amaliyotga samarali tadbir qilish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha komissiya, Qonunchilik palatasining fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi tashkil etildi.

Yoshlarga oid olib borilayotgan siyosatda quyi palataning rolini oshirish maqsadida 2017 yilda Qonunchilik palatasining Yoshlar masalasi bo'yicha komissiyasi tuzilib, uning asosiy vazifa va vakolatlari belgilab olindi. O'zbekiston respublikasi prezidenti tashabbusi bilan parlament faoliyatini ilmiy, axborot – taxliliy jihatdan ta'minlash samaradorligini oshirish, parlamentning qonun ijodkorligi ishlari sifatini tubdan yaxshilash maqsadida 2017 yil 29 dekabrda Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi. Institut tomonidan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda

parlamentning rolini kuchaytirish, uning norma ijodkorligi va parlament nazorati yo‘nalishidagi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida davlat byudjeti, iqtisodiyot, pul-kredit siyosati masalalarida, davlat byudjeti ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlashda deputat va senatorlarga professional, mustaqil va xolis axborot – tahliliy, ekspertlik xizmati ko‘rsatish maqsadida Davlat byudjeti boshqarmasi tashkil etildi. Oliy Majlis faoliyatini moliyaviy, moddiy – texnik, tashkiliy jihatdan ta‘minlash takomillashtirildi. Oliy Majlis palatalari qo‘mitalari huzurida ular faoliyatiga bevosita yordam beradigan kotibiyatlar tashkil etildi.

Oliy Majlis Senatining Qonunchilik va sud huquqi masalalari qo‘mitasi negizida Senatning Sud huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tashkil etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonidan kelib chiqib, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish, davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratish vazifalari belgilandi. Shu munosabat bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash va davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma‘lumotlar bazalari yaratildi. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun www.license.gov.uz, «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishni ta‘minlash uchun birdarcha.uz veb-saytlari yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko‘rib chiqish va optimallashtirish natijasida tadbirkorlik subektlarini ro‘yxatga olishning tartib-taomillari 4-martaga, ro‘yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqaga qadar qisqartirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmon 20172021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblandi hamda mohiyatiga ko‘ra O‘zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib berdi. Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo‘nalishi belgilab berildi. Bular quyidagilarda o‘z aksini topdi, Birinchi yo‘nalish ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institusional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Mazkur sohadagi chora-tadbirlar quyidagilarni nazarda tutadi, ijro etuvchi hokimiyat organlarini tashkil etish va tugatishning aniq mezonlari hamda tartibtaomillarini joriy qilish, kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalangan holda, ijro etuvchi hokimiyat organlarini

optimallashtirish, ijro etuvchi hokimiyat organlarining mustaqilligini oshirish hamda ularning Vazirlar Mahkamasi bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini izchil takomillashtirish va «Elektron hukumat» tizimini yanada keng joriy etish, ma‘muriy adliyani rivojlantirish va murojaatlarni kollegial eshitishni joriy qilish. Ikkinchi yo‘nalish ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan quyidagi masalalar bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘riladi, rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashabbuskorligi va rolini oshirish, maqsadli indikatorlarga erishishga asoslangan, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholashning prinsipial yangi tizimini joriy qilish, xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan, shu jumladan, sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish, autsorsing, kraudsorsing kabi ishni tashkil etishning zamonaviy uslublaridan foydalanish, rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilishda jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlikning zamonaviy shakllarini joriy etish. Uchinchi yo‘nalish iqtisodiyot tarmoqlariga ma‘muriy ta’sirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda quyidagilar rejalashtirildi, xususiy sektor samarali faoliyat ko‘rsatayotgan sohalarda davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlarini tuzishni cheklash va amaldagi davlat korxonalarini qayta tashkil etish, iqtisodiy faoliyatda davlat ishtirokining aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda ijtimoiy hamda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institusional bazasini takomillashtirish, ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish. To‘rtinchi yo‘nalishda, jumladan, quyidagilar orqali vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilgan, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning roli va javobgarligini oshirish, hududiy organlarning rahbar kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kuchaytirish. Beshinchi yo‘nalish davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g‘oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan. Mazkur chora-tadbirlar qatorida quyidagilarni ta’kidlash lozim, davlat xizmatlari ko‘rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni ta’minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqishga investitsiyalarni faol jalb etish, zamonaviy ilmiy-tadqiqot va innovatsion yutuqlarni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zarur bo‘lgan rivojlangan infratuzilmani yaratish, tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish. Oltinchi yo‘nalish-da professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini o‘rnatish belgilangan. Ularga erishish uchun quyidagilar rejalashtirilgan, davlat xizmatining shaffofligi va

ochiqligini ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi mexanizmlarini joriy etish, davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy ta'minotining zamonaviy tizimini kiritish orqali ularning mehnat unumdorligini oshirish.

Bundan tashqari, Farmon bilan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi normalarini amaliy ro'yobga chiqarish bo'yicha 40 dan ortiq aniq tadbirlarni nazarda tutuvchi «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiya-sini amalga oshirish bo'yicha komissiya hamda davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish yuzasidan takliflar tayyorlash bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etildi. Komissiya ishchi guruhlar tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqili-shini tashkil etadi, shuningdek, Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi va «Yo'l xaritasi»ning to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat'iy nazorat olib boradi. Shu bilan bir qatorda, Komissiyaga davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o'rganish va uni tubdan isloh qilish bo'yicha takliflar tayyorlash jadvalini tasdiqlash vazifalari yuklatildi, unga asosan 100 dan ortiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish rejalashtirildi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ulug'vor g'oyani hayotga to'liq tatbiq etishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlagan edi. Bugun kunda hayotga tatbiq etilayotgan Harakatlar strategiyasi fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilishdagi rolini ham yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarmoqda. Ushbu yo'nalishda Harakatlar strategiyasiga asosan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Adliya vazirligining ma'lumotiga ko'ra, 2018 yil 1 iyul holatiga adliya organlarida 9478 ta nodavlat notijorat tashkiloti va ularning alohida bo'linmalari davlat ro'yxatidan o'tgan. Eng ko'p NNT Toshkent shahri (808), Farg'ona (802), Samarqand (745), Andijon (701) viloyatlarida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq 2019 yilda O'zNNTMA va hududiy bo'limlari faoliyati bo'yicha Davlat dasturi ijrosiga NNTlarni keng jalb qilishdagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilandi: *birinchidan*, jamoatchilik boshqaruvi tizimini islohotlar talablariga muvofiq takomillashtirish asosida jamiyatda O'zNNTMAning o'rni va nufuzini oshirish hamda faoliyatini kompleks rivojlantirish, jamiyatda jamoatchilik nazorati samaradorligini yuksaltirish, davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yanada kuchaytirishga qaratilgan amaliy choralarni qaror toptirishda faol ishtirok etish; *ikkinchidan*, jamiyatda huquqiy madaniyatni, yuksak ma'naviyatni,

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, inson huquqlari, manfaatlari va erkinliklarini ta'minlashda davlat organlari bilan hamkorlikni yanada jadallashtirish asosida jamoat nazorati tamoyillarini hayotga yanada keng va izchil joriy qilish; *uchinchidan*, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni, innovatsion loyihalarni milliy iqtisodiyotga joriy qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlik bilimlarini shakllantirishda davlat organlariga ko'maklashish; *to'rtinchidan*, ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlangan aholi qatlamlarini bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlari ijrosini bajarilishi bo'yicha jamoatchilik nazoratini samaradorligini oshirishda davlat organlari bilan hamkorlik qilishni yanada kuchaytirish; *beshtinchidan*, mamlakatimizda ishchi kuchi raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar va loyihalarda faol ishtirok etish; *oltinchidan*, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilashda NNTlarning innovatsion faolligini yuksaltirishga qaratilgan loyiha-larni qo'llab-quvvatlash; yettinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar markazida inson huquqlari va manfaatlari davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifa sifatida belgilanligini e'tiborga olgan holda O'zNNTMA va quyi bo'g'inlari tomonidan hamda boshqa hamkor tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda mazkur sohani keng yoritishda faol ishtirok etish. O'zbekiston Prezidentining "Mamlakatni demokratik yangilanish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ana shunday yuridik hujjatlardan biri bo'lib davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim masalalari bo'yicha o'zaro fikr almashish uchun samarali munosabatlar maydonlarini yaratilishiga xizmat qiladi. Ushbu Farmon fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, ularni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, "uchinchi sektor"da band bo'lgan aholini ijtimoiy himoya qilish borasida bir qator imtiyozlarni belgilab berdi: Bular quyidagilarda ko'rindi. 2018 yil 1 iyundan boshlab nodavlat notijorat tashkilotlarning tadbirlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan kelishish talab etilmaydi, balki bunday tadbirlar haqida xabardor qilish belgilab qo'yildi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi miqdori 25 foizdan 15 foizgacha kamaytirildi.

Farmon chiqmasidan oldingi hujjatlarda jamoat fondlarining har yilgi ma'muriy xarajatlari, vasiylik kengashi va taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq hamda ularning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq xarajatlarning kompensatsiya qilish fond barcha xarajatlari summasi-ning 20 foizdan oshmasligi o'rgatilgan bo'lsa, endilikda ushbu summa 30 foiz qilib belgilandi. Shu asosda jamoat fondlariga o'zlarining faoliyatini tashkil etish uchun ko'proq mablag' jalb etishga ruxsat berildi. Farmonning muhim e'tiborli tomoni shundaki, nodavlat notijorat tashkilotlarining pensioner xodimlariga pensiya to'liq to'lanishi belgilab qo'yildi.

Prezident SH.M.Mirziyoyev rahbarligida keyingi ikki yilda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning institutlarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslarni takomilash-tirishda muhim qadamlar qo'yildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini

tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi maxsus Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Prezident huzurida davlatning va fuqarolik institutlarini jamiyat hayotini yanada har tamonlama jadal rivojlantirish asosida hamkorlik harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy demokratik institutlar faoliyatini samaradorligini ta'minlashga qaratilgan Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Maslahat kengashi tashkil etildi. Farmonning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, unda ushbu sohada mavjud bo'lgan kamchiliklar asoslantirilgan va tahlil qilingan ravishda ko'rsatib berilgan hamda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning milliy modelini hamda shu asosda o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishning zarurligi tahlillar asosida ko'rsatib berildi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi, urf-odat va marosimlari qayta tiklandi. Hozirgi jadal o'zgarishlar mahalla, uning boshqaruv tizimi, ijtimoiy – huquqiy faoliyatini yangicha mezonlar asosida tahlil qilishni, bugungi zamon talablariga javob beradigan o'zini o'zi boshqarish organing yangicha tuzilmasini shakllantirishni, uning ish yuritish tizimini samarali tashkil etishni taqazo etmoqda. Bu borada 2017 yil 3 fevralda yangi tahrirda qabul qilingan "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni muhim qadam bo'ldi. Unga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi huzurida "Tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari", shuningdek Respublika kengashi va hududiy kengashlar huzurida "Keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosari" lavozimi va mahallalarda "Qaynonalar kengashi" tashkil etildi.

Ushbu tuzilmalar faolitini bugungi kun ruhida takomillashtirish nuqtai nazaridan 2018 yil 15 fevralda normativ hujjat, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi yangi Qarori qabul qilindi. Qarorning e'tiborli tomoni shundaki, 2018 yilning 1 apreldan tashkil etilgan mahallalardagi "diniy ma'rifat va ma'naviy – ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha rais maslahatchisi" lavozimi o'rniga "Xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis" lavozimi ta'sis etildi.

Mahallalarning rolini va maqomini oshiribborish, ularning jamiyat tinchligi va farovonligidagi o'rni va rolini yaxshi tushungan O'zbekiston hukumati 2018 yil 27 iyundagi "Obod mahalla"

davlat dasturini qabul qildi va bu dastur doirasida mahallalarda tadbirkorlik bilan shug'ullanishni istovchilarga bo'sh turgan yerlarni tadbirkor va hunarmandlarga nol qiymatda berish, ularni har tomonlama qo'llab –quvvatlash kabi vazifalari belgilab berdi.

"Obod mahalla"jamg'armasini ham moliyalashtirish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, 2018 yildan boshlab mahalla fuqarolar yig'inlari huzuridagi

- "Yarashtirish komissiyasi"ga - O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasi;

“Ma’naviyat va ma’rifat masalalari bo’yisa komissiya”siga - Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Madaniyat vazirligi biriktirildi;

“Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash komissiyasi”ga – Sog’liqni saqlash vazirligi, bandlik va mehnat munosabatlari hamda Moliya vazirligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, “Nuroni” jamg’armasi;

“Xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasiga” – Respublika Xotin –qizlar qo‘mitasi;

“Voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo’yicha komissiyasi”ga – O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, Ichki ishlar va xalq ta’limi vazirliklari, jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi;

Tadbirkorlik faoliyati va oilasiy biznesni rivojlantirish masalalari bo’yicha komissiyasi”ga – Savdo sanoat palatasi, Adliya vazirligi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda tijorat banklari;

“Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo’yicha komissiyasi”ga – Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston ekologiya harakati;

“Jamoatchilik nazorati va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish bo’yicha komissiyasi”ga – O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi, Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi yavindan ko‘mak berishi belgilab qo‘yildi.

2019 yilning 13 avgustida mahallalarda tadbirkorlarning muammolarini qonuniy hal qilish, sohada samarali tizim yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallan-magan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizi-mini tubdan takomillashtirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, tadbir-korlik subektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzil-masidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shahar hokimliklariga quyidagilarni amalga oshirish ta’qilinishi belgilandi:

- mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlaridagi tadbirkorlarni o‘z faoliyatidan tashqari, shu jumladan, xomiylik va xayriya yordami ko‘rsatish, hududlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlariga jalb qilish, mahalliy tadbirkorlarni qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy ishlarga va mehnat resurslari, pul va boshqa moddiy boyliklarni yo‘naltirish bilan bog‘liq boshqa tadbirlarga jalb qilish, tadbirkorlar ishtirokida majburiy tartibda, shu jumladan, ularga nisbatan ma‘muriy va boshqa choralarni qo‘llash tahdidi ostida ortiqcha yig‘ilishlarva tadbirlar o‘tkazish.

Eng muhimi, yangi qonun va farmonga muvofiq, 2020 yil 1 yanvardan e’tiboran o‘sha mahalla hududidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini olib qo‘yish va bir fermer xo‘jaligidan boshqasiga o‘tkazish hamda jismoniy va yuridik

shaxslar egaligida bo'lgan, ular foydalanidigan, ularning mulki bo'lgan yer uchastkalarini jamoat va davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yish vakolatlari mahalliy xalq deputatlari kengashlariga beriladigan bo'ldi.

Umuman, yangilanayotgan O'zbekistonda 2020 yilga kelib mahalla taraqqiyotining yangi bosqichi boshlandi. O'tgan 2017-2020 yillar oralig'ida aholi muammolarini aniqlash, **“Mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi - mahalla”** tamoyili asosida mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi asosiy ko'prik bo'lishini amalda ta'minlash, oila va mahalla hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy – ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oila va xotinqizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora – tadbirlari to'g'risida”gi Faromni qabul qilindi. Ushbu Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vchazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq vazirlikning tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

2020 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev rahbarligida “Mahalla – tinchlik – osoyishtalik, obodlik va farovonlik markaziga aylanadi. Deb nomlangan videoslektor o'tkazildi. Unda mahallaning nufuzini oshirish, fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, mahallalarda tinchlik osoyishtalikni ta'minlashda mahallalarning rolini oshirish, 200 dan ortiq vazifalari belgilangan mahallalarda ishlashning murakkab bo'lib qolishini e'tiborga olgan holda bu yo'lida mahalla raislarining vakolat muddatlarini 3 yildan 5 yilga ko'paytirish kerakligini, uning 2 nafar o'rinbosari o'rniga 3 nafar o'rinbosari joriy etilishini, ularning vakolat muddatini ham 5 yilga yetkazish kerakligini alohida ta'kidladi. Natijada 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan “Mahalliy davlat xokimiyati to'g'risida”gi va “fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi Qonunlar, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan “Xalq duputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlarto'g'risida”gi Qonun va boshqalar muhim o'rin egalladi. O'zbekiston respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq mamlakatimizda mahalla boshqaruvi tizimi 2,5 yil muddatdan saylangan bo'lsa, 2019 yilda tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan yangi tahriridagi “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsaqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida”gi Nizomda “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsaqoli) va uning maslahatchilarining 3 yilga saylanishi belgilangan bo'lsa 2020 yil fevraldan boshlab 5 yilga saylanadigan bo'ldi.

1993 yilda respublikada jami 12289 ta o'zini – o'zi boshqarish organlari mavjud bo'lgan bo'lsa, ularning soni kamaytirilib, 1998 yilda 9583 taga, 2001 yilda 9462 taga tushirildi. 2018 yilga kelib 10 mingdan ziyol o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat yuritdi.

Fuqarolik jamiyatining muhim belgisi bu fuqarolar bilan ishlash qonuniy tizimining yo'lga qo'yilishi hamdir. Masalan, 2015 yilda Inson huquqlari bo'yicha vakil Ombudsman nomiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqvarish organlaridan 12 mingdan ortiq murojatlar kelib tushgan. Murojatlarni o'rganish natijalari bo'yicha 6 mingdan

ortiq arizachiga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kelgusida amalga oshirish bo'yicha og'zaki va yozma tavsiyalar tarqatilgan. Yana 6 mingga yaqin murojatnoma belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari ham hamkorlikda o'rganib chiqilgan.

2016 yildan boshlangan yangi davr bu boradagi vazifalarni ancha yengillashtirdi. Xususan, 2016 yil 24 sentabrdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq qabulxona"lari va "Virtual qabulxona"lari tashkil etildi. Unga muvofiq Prezident Virtual qabulxonasiga 2017 yil fevral oyi oxirigacha 509122 ta murojat kelib tushgan va ularning 436408 tasi ko'rib chiqilgan. 2018 yil oxirigacha bo'lsa 2 million 500 ming nafardan ziyod kishiga yordam berilgan. Bu tabiiyki mahallalar faoliyatini va mas'uliyatini yanada oshirish vazifalarini qo'ydi. 2019 yil 1 fevraldan boshlab Prezidentining "Aholi muammolari bilan ishlashning yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra endi murojatlarni ko'rib chiqish uchun uyma – uy yurib, muammolarni joyida hal qilib, davlat organlarining aholi bilan ishlashini nazarda tutuvchi yangi tizm joriy qilindi.

O'zbekistonda "Kuchli jamiyatdan –kuchli fuqarolik jamiyati sari" dasturi asosida 2000 yil 2 iyunda "XXI asr mahalla konsepsiyasi" ishlab chiqilgan. Bu konsepsiyaga "Fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun asos bo'lib xizmat qildi hamda konsepsiya qoidalari BMTning "Mahalliy o'zini – o'zi boshqarish butunjahon Xartiyasi" va "Mahalliy o'zini – o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi" hamda g'arbning ayrim davlatlaridagi "Mahalliy mmunitsipal boshqarmalar" talablari ham inobatga olindi. Konsepsiyaga quyidagi vazifalar kiritilgan

- kelajakda fuqarolar ijtimoiy ta'minotini tashkil qilishni yanada takomillashtirish;

- mahallada aholi tinchligi va totuvligini mustahkamlash, fuqarolarning kelish, ketish holatlarini qayd qidishni yanada takomillashtirish va ular ishida faol qatnashish;

- harbiy xizmat uchun fuqarolarni ro'yhatga olishda harbiy

tuzilmalarga yaqindan ko'mak berish;

- mahallalardagi ishsiz fuqarolarni ro'yhatga olish, ishga joylashtirishga tavsiyalar berish;

- madaniy – ma'rifiy ishlar olib borishni yanada takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, turli darajadagi hokimliklar, mahalliy xalq deputatlari kengashlari qarorlarining o'zini o'zi boshqarish organi joylashgan hududdagi bajarilishini nazorat qilish;

- Yodgorliklar, qabristonlar va ziyoragohlarni saqlash ustidan nazorat o'rnatish.

O‘zbekistonda so‘z erkinligini ta‘minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko‘rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to‘g‘risidagi keng qamrovli ma‘lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etish bo‘yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o‘rtasida sifatli muloqotni yo‘lga qo‘yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida bir qator islohotlar o‘tkazildi. Bugungi kunda OAV vositalarini isloh qilish, ularni qo‘llab quvvatlash, so‘z va axborot erkinligini ta‘minlash ishlari amalga oshirilmoqda. O‘ndan ortiq qonunlar qabul qilinib, sohadagi qator tarmoqlar negizida jurnalistlarning professional faoliyati uchun zarur qulayliklar yaratildi. Xususan, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “telekommunitsiyalar to‘g‘risida”gi, “Reklama to‘g‘risida”gi, “Mualliflik huquqi va turdosh xuquqlar to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlarda axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash hamda himoya qilish belgilab qo‘yildi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarini “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylantirish muammosi yana yuzaga qalqib chiqmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to‘laqonli bo‘g‘iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta‘sirchan vositaga aylantirish vazifasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mutaxassislar fikricha, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligi uch omilga bog‘liqdir. Bular: birinchidan, maxsus qonunlar va qoidalarning mavjudligi; ikkinchidan, axborot sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitining amal qilishi; uchinchidan, jurnalistlarning kasb mahorati va o‘z so‘zi uchun mas‘uliyat darajasi.

Demak, avvalo, ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo‘lishi kerak. Bu - ular davlatdan mutlaqo mustaqil bo‘lib, alohida shaxslar qo‘liga o‘tib ketishi kerak, degani emas. Gap mustaqillikning eng yuksak darajasi – ichki mustaqillik haqida bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining bunday mustaqilligi jurnalistlar ijodining erkinligi, mavzu tanlash va fikr berishdagi mustaqillikda namoyon bo‘ladi. Bunda jurnalistning ma‘muriy immunitetga ega bo‘lishi nazarda tutiladi. YA’ni, jurnalistning material tayyorlashda o‘z rahbariyatidan mustaqil bo‘lishi hamda o‘z ijodi namunalari uchun faqatgina uning o‘zi mas‘uliyatli va javobgar bo‘lishi talab etiladi. Shundagina

jurnalistsning ijodiy faoliyatini faqatgina ommaviy axborot vositalari faoliyatiga daxldor qonunlarga cheklaydi, xolos. Ish joyida jurnalistlarni faqatgina ijodiy jarayonga aloqasi bo'lmagan xatolari uchungina jazolash mumkin bo'ladi. Ijodidagi xatolari – kimningdir qadrqimmatini, sha'nini poymol qilgani uchun, buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilgani uchun yoki voqea-hodisalarni buzib talqin qilgani uchun esa u faqat sud oldida javob beradi. Shundagina jurnalistning ijodiy salohiyatini to'la ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi, u professional mustaqillikka ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi ham demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qarama-qarshi nuqtai nazarlardan iborat bo'lgan dasturlarni yaratish, chiqishlarda muqobil fikrlar to'qnashuviga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining islohoti "g'oyalar bozori"da xali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Lekin o'rinli bir savol tug'iladi: bu "bozor" har qanday g'oyalar uchun ham ochiq bo'lishi kerakmi? Yo'q, albatta. Ekstremistik nuqtai nazarlar, g'ayriinsoniy tabiatga ega fikrlar va qo'poruvchilikka chaqiruvchi g'oyalarga bu "bozor"da o'rin yo'q. Lekin jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, bunyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovonroq qilishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar, taklif va tavsiyalar bu "bozor"da bimalol raqobat qila oladilar.

Shu asnoda jamiyat hayotining turli yo'nalishlarida qabul qilinayotgan huquqiy-meyoriy hujjatlar, istiqbolli dasturlar, loyihalarni amalga oshirishda jurnalistlar tomonidan axborot olish, to'plash va tarqatish masalalarida qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirishga, fuqaro-larni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida xolis, tezkor va to'la-to'kis xabardor qilishga, davlat va jamoat tashkilotlarining axborot xizmatlari ishining takomillashishiga, fuqaro- larning davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilib, bu organlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda barcha zarur sharoitlar yaratiladi.

Bugungi kunga kelib elektron davlat xizmatlarini taqdim etish doirasida davlat organlarining o'zaro, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subektlari bilan hamkorligini ta'minlovchi yagona texnologik tuzilmani shakllantirishga doir ishlar ko'lami kengaydi. Elektron hukumat davlat organlarining jismoniy hamda yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xizmatlari ko'rsatishga oid faoliyatini, shuningdek idoralar o'rtasida elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga yo'anltirilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi.

Elektron hukumatni turlicha ta'riflash mumkin. Keng ma'noda, elektron hukumatning vazifalari va xizmatlar ko'rsatishi hamda faoliyatini rivojlantirish uchun AKTni qo'llash ko'rinishida belgilanishi mumkin. Elektron hukumatni — davlat oganlari ko'rsatayotgan hizmatlarning, ochiqligi, shaffofligi, shuningdek, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish usuli deb tushunish ham o'rinlidir. Bundan tashqari, elektron hukumatni AKTni ko'llagan holda

davlat organlarining yanada samarali faoliyat ko'rsatishi hamda fuqarolar va tadbirkorlik subektlariga sifatli xizmatlar ko'rsatish tizimi deb ta'riflash mumkin.

E-xizmatlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash barobarida nafaqat shu tashkilotning, balki butun mamlakatning umumiy imijini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, elektron hukumat atamalarini quyidagi to'rtta asosiy qismlar orqali umumlashtirsa bo'ladi. Elektron hukumat quyidagicha tavsiflanadi: AKT dan foydalanish (kompyutertarmoqlari, internet, faks va telefon); Hukumat faoliyatini qo'llab-quvvatlash (axborot bilan ta'minlash, xizmatlar, mahsulotlar, ma'muriy boshqaruv); Fuqarolar bilan hukumat munosabatlarini rivojlantirish (yangi aloqa kanallarini yaratish, siyosiy yoki ma'muriy jarayonlarga fuqarolarni targ'ibot va tashviqotlar orqali jalb qilish); Belgilangan strategiyalarga mos ravishda ishtirokchilarning gtegishli jarayonlarda qatnashish faolligini belgilash.

Elektron hukumatning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: – davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

– ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

– o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish;

– aholi va tadbirkorlik subektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «Yagona oyna» tamoyilini joriy etish;

– tadbirkorlik subektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxonarasmiylashtiruv, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berishda, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish; tadbirkorlik subektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish; naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish; masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Keyingi yillarda idoralararo axborot tizimlari, elektron hukumatning markaziy ma'lumotlar bazalari va axborot resurslarini joriy qilish maqsadida elektron hukumat sohasidagi munosabatlar qonun hujjatlari va tegishli meyoriy hujjatlar bilan

mustahkamlandi. Elektron hukumat faoliyati uch yo‘nalishda belgilandi. YA’ni “davlat-davlat”, “davlat-biznes” va “davlat-fuqaro” yo‘nalish-larini qamrab oldi. Bu tizim idoralararo darajada davlat muassasalari o‘rtasida axborot almashish samaradorligini hamda joylarda rejalashtirish va boshqaruvning sifatini yuksaltirishga xizmat qildi. Jamoatchilik fikrini muntazam monitoring etib borish hamda unga ta’sir ko‘rsatish imkonini berdi. Davlat va biznes munosabatlarida esa ma’muriy tartib-taomillar avtomatlashtirildi. Natijada biznesni ro‘yxatga olish, soliq hamda statistika hisobotlarini, bojxona deklaratsiyalarini topshirishda tadbirkorlarning vaqti va mablag‘i tejash yo‘lga qo‘yildi. Ani paytda elektron hukumat xalq bilan muloqot uchun qo‘shimcha mexanizmlarni yaratish, davlat organlari faoliyatining samaradorligi, tezkorligi hamda shaffofligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ijro intizomini yanada mustahkamladi. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 9 dekabrda “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni esa bunday vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu turli ma’muriy tartib-taomillarni yanada yengillashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta’minlash, samaradorligini ko‘tarish, bular asosida fuqarolarga yuqori darajadagi davlat xizmatlarini taqdim qilish, tadbirkorlik subektlari faoliyati uchun maqbul muhit yaratdi.

2017 yilda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harkatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonidan kelib chiqib, qabul qilingan “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturida ham aynan ana shu sohalarga alohida to‘xtalib o‘tildi. Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishining 38-bandida “Notarius” axborot tizimlari kompleksini barcha notarial idoralarda joriy qilish vazifasi qo‘yilgan edi. Bu ishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017 yil 27 fevralda

“bitimlarni notarial tasdiqlash tartibini idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorda Adliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni avtomatlashtirish, ko‘chmas mulk va avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish ta’qiqlanganligi yoki xatlanganligi bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda notarial harakatlarni amalga oshirishda idoralararo elektron hamkorlik yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishni nazarda tutuvchi “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimini amalga kiritishga kelishib olindi.

2018 yil 13 dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonda esa elektron hukumat sohasida amalga oshirilayotgan eng yaxshi innovatsion va amaliy yechimlarni tatbiq etish, xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llashda yuzaga keladigan savollarni muhokama qilish hamda davlat xizmatlarini rivojlantirishda

innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratildi.

4.2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini belgilanishi

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan vaqtdan beri sud-huquq tizimida bir qator islohotlar o'tzildiki, bu quyidagilarda ko'rindi. Avvalo uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1991-2000 yillarni, ikkinchi bosqich 2001-2010, uchinchi bosqich 2011-2016 yillarni o'z ichiga oldi. Quyidagi natijalarga erishildi. *Birinchi*dan, tizimni isloh qilishda sudlar tizimi ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarildi va mustaqil hokimiyat tarzida shakllantirildi. Sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, sud tizimi uchun kadrlar masalasi bilan shug'ullanish Adliya vazirligi vakolatidan olinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha, 2008 yil 1 yanvardan "O'lim jazosini bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"dagi Qonuni qabul qilinib, unga ko'ra o'lim jazosi o'rniga uzoq muddatli va umrbod ozodliklikdan mahrum etish jazosi kiritildi, uzoq muddatli va umrbod ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga belgilandi, jabogarlik qasddan odam o'ldirish (97 moddaning uchinchi qismi) va terrorizm (155 moddaning uchinchi qismi) uchun tayinlanadigan bo'ldi.

2017-2021 yildan esa O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish, Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, Ma'mu-riy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoyi qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpapvapashtirish, Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish, Sud-huquq tizimida qonuniylilikni yanada mustahkamlash, Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish kabi vazifalar belgilab berildi.

O'tgan yillar davomida sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatni shakllantirish, demokratlashtirishning tarkibiy qismi sifatida sudlarning xolisligi va mustaqilligini mustahkamlash, sudni hokimiyatning xolis, mustaqil tarmog'i sifatida mustahkamlash, qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklari ishonchli himoyalashini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Sudlarning chinakam

mustaqilligini ta'minlash maqsadida bir qator hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi

PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi"ning 2yo'nalishida, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur yo'nalishda sud-huquq tizimini isloh qilish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevral PF4966-son "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi sud hokimiyatining yagona tizim sifatida odil sudlovni amalga oshirish yo'lidagi muhim hujjat bo'ldi.

Bu Farmonga muvofiq ilk marotaba davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining konstitusiyaviy kafolatlarini amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan ma'muriy sudlar, xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiy sudlar tashkil etildi.

Shuningdek, Mazkur Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona Oliy organi - O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi. Ushbu islohot sud tizimini boshqarishdagi bir-birini takrorlovchi funksiyalarni bartaraf etishga hamda yagona sud amaliyotini shakllantirishga olib keladi. Bundan tashqari, sud hokimiyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 6 apreldagi O'RQ-426-son "O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi, 2017 yil 29 martdagi O'RQ-421-son "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha choratadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, 2017 yil 6 apreldagi O'RQ-427-son "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. "O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan Bosh qomusimizning 80, 81, 83, 93, 107, 110, 111-moddalariga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar sud hokimiyatini yanada mustaqilligini kafolatlab, uning kelgusidagi rivojiga shakl shubxasiz ulkan xissa qo'shadi. Sudyalar oliy kengashi konstitusiyaviy maqomga ega bo'ldi. Bosh qomusimizning 111-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida sud

hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiya-viy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashishi belgilandi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, kengash faoliyatiga oid masalalar "O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunida to'liq o'z aksini topdi. Qonunning 2-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi sudyalari hamjamiyatining organi bo'lib,

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi. Kengash sudyalik lavozimlariga nomzodlarni eng malakali va mas'uliyatli mutaxassislar orasidan tanlov asosida tanlab oladi. Sudlarni tayinlash, kasbiy tayyorlash, malakasini oshirishni tashkil etadi. Kengashning asosiy vazifalarida sudyalarning faoliyati samaradorligini baholash, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni amalga oshirish, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi, shuningdek, ularni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortish uchun xulosa berish haqidagi masalani ko'rib chiqish kabilar belgilangan. E'tirof etib o'tish o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha mutloq vakolati mavjud emas edi. Shuningdek, mazkur komissiya faoliyati alohida qonun bilan tartibga solinmagan edi. Qonunda kengashni shakllantirish tartibi to'liq ko'rsatilgan. Unga ko'ra, kengash rais, rais o'rinbosari, uning a'zolari va kotibidan-jami yigirma bir nafar kishidan iborat tarkibda bo'ladi. Bu tarkib sudyalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 martdagi O'RQ-421-son "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunida

ham jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjatlariga inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash, sud muhokamasini adolatli va o'z

vaqtida o'tkazish, jazoning adolatli va insoniyligi kafolatlarini kuchaytirishni inobatga olgan holda odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, mazkur Qonun bilan fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beruvchi muddatning 3 yildan 1 yilga qisqartirilishi, fuqarolik huquqiy munosabatlarning barqarorligi, fuqarolik protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini qayta ko'rib chiqishning amaldagi tizimini takomillashtirish, shuningdek sud protsessi muddatlari va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ortiqcha oraliq instansiyalarni bartaraf etish maqsadida Qonunda viloyat darajasidagi sudlar tomonidan fuqarolik va jinoyat ishlarini nazorat tartibida qayta ko'rish bo'yicha bir-birini takrorlovchi instansiyalari tugatilib, o'z navbatida, tegishli sud raislari va

prokurorlarning nazorat tartibida protest keltirish vakolati bekor qilindi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ishlarni nazorat tartibida ko‘rishga oid bir-birini takrorlovchi vakolatlari bekor qilindi. Qonun bilan bu kabi o‘zgartirishlarning kiritilishi ortiqcha va bir-birini takrorlovchi instansiyalarning bekor qilinishi aynan bir nazorat instansiyasi tomonidan ishlarning bir necha bor ko‘rib chiqilishini oldini olish, sud qarorlarining uzil-kesilligi va barqarorligini ta‘minlab, fuqarolarning sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirdi.

4.3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish vazifalari

2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar Strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlar milliy iqtisodiyotni yaratish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini asosi hisoblanuvchi o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o‘sinhga erishishda muhim omil bo‘lib hisoblanishi alohida ta‘kidlandi. Bu “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga doir davlat Dasturida doirasida ham belgilab berildi.

Harakatlar Strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” bobida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini himoya qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesga to‘liq erkinlik berish, ularning faoliyatiga davlat idoralarining noqonuniy aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik, davlat mulkni xususiylashtirishni yanada kengaytirish, xo‘jalik yurituvchi subektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulkining xususiylashtirilgan obektlari bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida davlatning ishtirokini kamaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu iqtisodiyot sohasida zamon talablariga javob beradigan, yangicha ma‘nomazmundagi va samarali islohotlarni amalga oshirish yo‘lida dadail qadamlardan biri bo‘ldi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan, iqtisodni erkinlashtirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma‘ruzalarida alohida ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan O‘zbekiston rahbari “Har bir rahbar kamchilik va yutuqlarni to‘g‘ri bo‘lay olishligi bu muhim masala ekanligi, kamchilikkakamchilik, yutuqqa-yutuq deb qaray olishimiz kerak. Agar biz erishgan yutuqlarga berilib, mavjud kamchiliklarni ko‘ra olmasak, biz belgilab olgan ushbu yuqori makrralarga yeta olmaymiz. Xalq manfaati qachon ta‘minlanadi, qachonki, biz amalga oshirayotgan ishlarda unum va baraka bo‘lsa, buning uchun biz xalq dardini eshita olishimiz, ular xozlagandek turmush shart-sharoitlarini yanatish uchun xalqimizni tadbirkor qilishimiz hamda ularga tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun erkinlik va preferensiyalar berishimiz kerak. Chunki, xalq

boy bo'lsa, davlat ham boy bo'ladi. Men o'ylaymanki, shunda xalqimiz albatta bizdan ham rozi bo'ladi", deya haqqoniy ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktabrda "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni esa alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Farmonda xususiy mulkni himoya qilishni yanada kuchaytirish asosiy maqsad qilib olindi. Kichik biznes va tadbirkorlik uchun eng qulay shart-sharoatlar yaratish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor qaratildi. Bu chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 2018 yilda 407,5 trln. so'mni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 5,1 foizga o'sdi. Yuqoridagi Qonundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 27 iyuldagi Farmoni, "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 8 yanvar PF-5614-son kabi Farmon va Qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan hujjatlar respublikada kasanachilik, hunarmandchilik, qoramol boqish va uyda turli xizmatlar ko'rsatishga asoslangan oilaviy tadbirkorlikni ham rivojlantirishga keng yo'l ochdi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2018 yil 7 iyunda qabul qilingan "Har bir oila - tadbirkor" davlat Dasturi asosida har bir oilaning tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirish, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirish borasidagi vazifalar belgi-landi. Hatto, kreditlar berish tizimi ham joriy qilinib, unda asosan kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Respublikada oilalar tadbirkorligi rivojlanish borasida namunaviy biznes-loyihalari, ilmiy-amaliy ko'nikmalar tarqatildi.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi, qishloq xo'jaligi va unga kiradigan barcha tarmoqlar va ishlab chiqarish majmuasini modernizatsiya qilish, fermer va dehqon xo'jaliklarining rivojlantirilishi va kengaytirilishi, ishlab chiqarish, ijtimoiy bozor infratuzilmasi, transport va kommunikatsiya qurilishining rivojlantirilishi, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarining kengaytirilishi ko'plab ish o'rinlarini yaratilishiga olib keldi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildiki, natijada, mamlakatimizda hukm surayotgan xotirjamlikning moddiy va iqtisodiy zamini mustahkamlandi. 2018 yil yurtimizda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb berilishi bilan xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirishga katta ahamiyat berilishi bilan avvalo xalqaro moliyaviy institutlar pul mablag'larini jalb qilish orqali moliyalashtirilgan investitsiyaviy loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash

koʻzda tutildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, qulay investitsiya muhitini yaratish, shuningdek mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirish sohasidagi tadbirlarning samarali va oʻz vaqtida ijro etilishini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi mansabdor shaxslari, vazirlik va idoralar, Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlari hududlarga biriktirildi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari boʻlsa har chorakda ushbu bandga muvofiq mamlakat hududlariga biriktirilgan mansabdor shaxslarning hisobotlari eshitishi belgilandi.

2017-2021 yillarga moʻljallangan umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari belgilanib, amalga oshirish yoʻlga qoʻyildi. “Har bir oilatadbirkor”, “Yoshlar-kelajagimiz” dasturlari doirasida 2 trillion soʻmga yaqin mablagʻ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalar amalga oshirildi. Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, Oʻzbekistonda bu iqtisodiy siyosatni amalga oshirish boʻyicha yondoshuvlar avvalambor, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratildiganligidan.

Harakatlar Strategiyasiga muvofiq 2017 yil 2 sentabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti “Valyuta siyosatini erkinlashtirish toʻgʻrisida”gi Farmoni imzoladi. Undan asosiy maqsad esa barcha bozor ishtirokchilari uchun bir xil sharoit yaratish boʻlib, bozordagi turli-tuman valyuta kurslari oʻrniga yagona rasmiy kurs belgilandi. Korxonalar va aholida chet el valyutasini erkin sotib olish imkoni paydo boʻldi. Valyuta bozorining liberallashtirish ham tashqi savdoga ham ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Bu sohada raqobatabrdoshlikni oshirish, eksport korxonalarini qoʻllab-quvvatlash, fermer xoʻjaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari-ning eksport faoliyatini ragʻbatlantirish, ularga imtiyozlar tizimini takomillashtirish, bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish muddatlarini keskin qisqartirish, tashqi savdo tariflarini pasaytirishga oid hujjatlarni rasmiylashti-rishlarning elektron shakliga oʻtish va boshqa chora-tadbirlar koʻrildi.

Oʻzbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbarkorlik faoliyatini yanada soddalashtirish borasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasi mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining yanada rivojlanishiga asos boʻla oladi.

4.4. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar strategiyasida chuqur oʻylangan oʻzaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yoʻnalishlarning belgilanishi.

Oʻzbekiston Mustaqillik yillari jahonni taraqqiy etgan mamlakatlari bilan aloqani muntazam olib bordi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq oʻrnatilgan aloqalar oʻz natijasini berdi. Oʻzbekiston bugungi kunda ham turli davlatlar bilan izchil siyosiy

muloqotni yo'lga qo'ygan bo'lib, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik xalqaro tashkilotlar doirasida global va mintaqaviy masalalar bo'yicha hamkorlikdan iborat bo'lib kelmoqda.

Zamonaviy dunyo qurilishining g'oyat mupakkab realliklar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasida qo'shni mamlakatlar bilan do'stlik hamda hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish eng muhim ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etib kelinmoqdv.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi nutqida xorijiy davlatlar, avvalo qo'shni mamlakatlar bilan yaqin hamkorlik zamonaviy talablar darajasida, o'zaro hurmat tamoyillari asosida hamda har ikki tomonning manfaatlari hisobga olingan holda amalga oshirilishini qayd etdi. O'zbekiston o'zining yaqin qo'shnilari bilan munosabatda ochiq, do'stona va pragmatik siyosatga sodiq bo'lib qoladi.

Davlatimiz mintaqaviy siyosatining vazifalari tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlash, barcha qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli va konstruktiv siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Shu bois O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan samarali hamkorligi mustahkamlandi. Bu borada tarix, madaniyat, an'anaviy qadriyatlar mushtarakligiga asoslangan, ildizlari asrlar qa'riga borib tutashadigan yaqin do'stlik hamda yaxshi qo'shnicilik rishtalari bog'lab turadigan Afg'oniston bilan munosabat alohida o'rin tutdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlik aloqalari muhim rol o'ynadi. O'zbekiston o'zining qo'shnisi bo'lgan Qozog'iston Respublikasi bilan hamkorlikni keng ko'lamda olib bordi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma, 2013 yil Toshkentda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma asosida taraqqiy etib kelgan bo'lsa, shu yillar davomida Qozog'iston Respublikasi O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud barpo etish borasidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladi, O'zbekistonning har qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, tamoyilariga asoslangan tashqi siyosatini qo'llab keldi. O'zbekiston ham o'z navbatida Qozog'istonni 2017-2018 yillarda BMT Xavfsizlik Kengashiga muvaqqat a'zolikka saylanishini qo'llab-quvvatladi. Qozog'iston O'zbekistonning savdo-iqtisodiy sohada muhim sheriklaridan biri bo'lib, O'zbekiston Qozog'istonga tabiiy gaz, avtomobillar, transport vositalari, mineral o'g'itlar, to'qimachilik, elektrotexnika va qurilish materiallari, meva-sabzavot va boshqa ko'plab tovarlar, turli xizmatlar eksport qiladi. Qozog'istondan O'zbekistonga neft, metall, un, yog'-moy mahsulotlari keltiriladi. O'zbekistonda Qozog'iston kapitali ishtirokida tuzilgan qariyb, 230 ta Qozog'istonda O'zbekiston ishbiarmonlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan 130 dan ortiq firmalar

faoliyat yuritib kelmoqda¹⁷. 2016 yilda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2 milliard dollarni tashkil qildi.

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan hamkorligini Turkmaniston bilan hamkorlik misolida ham ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan 2017 yil 6 mart kuni Ashxaboddagi uchrashuvi o'zaro hamkorlikni rivojlanishiga yana bir tamal toshini qo'ydi. Uchrashuv yakunida O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari qo'shma bayonotni, O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar o'rtasida 2018-2020 yillarda iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, temir yo'l transporti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid memorandum, 2017-2019 yillarga mo'ljallangan madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi, 2017-2018 yillarda tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik dasturi, O'zbekistondan Turkmanistonga qishloq xo'jalik texnikalari va kimyo mahsulotlari yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalar imzolandi. Xorazm viloyati bilan Dashovuz viloyati, Buxoro viloyati bilan Lebap viloyati hokimliklari o'rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik shartnomalari imzolandi¹⁸.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shanxay Hamkorlik tashkiloti 2001 yil 15 iyunda Shanxay shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston imzolagan SHXTni tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya asosida tuzildi. O'zaro ishonch, do'stlik, hamda yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari qilib belgilandi.

O'zbekiston SHHTga uch marotaba, ya'ni 2003/2004, 2009/2010, 2015/2016 yillar mobaynida raislik qildi. O'zbekistonning ilgari surgan tashabuslari, amaliy sayi-harakatlar SHHT faoliyat maqomining yuksalishiga xizmat qildi.

SHHT forumining XII majlisi ham 2016 yil iyun oyida Toshkentda bo'lib o'tdi. SHHT Davlat rahbarlari kengashining o'n oltinchi majlisi yakunlari, SHHT hududida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari, xavfsizlik, iqtisodiy, transport kommunikatsiya va investitsiyaviy hamkorlik sohasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, Tashkilotni yanada kengaytirish masalalari muhokama etildi¹⁹.

¹⁷ O'zbekiston – Qozog'iston: abadiy do'stlik va strategik sheriklikka asoslangan hamkorlikning yangi bosqichi // xalq so'zi. 2017 yil 24 mart.

¹⁸ Yaqin qo'shnichilik va qardoshlik rishtalari mustahkamlanmoqda // Xalq so'zi. 2017 yil 8 mart.

¹⁹ SHHT:Tinchlik va hamjihatlik yo'lidagi hamkorlik istiqbollari // Xalq so'zi. 2017 yil 28 aprel.

2019 yil Bishkekda bo‘lib o‘tgan SHHT Davlat rahbarlari kengashining o‘n to‘qqizinchi majlisida ham SHHT mamlakatlari o‘rtasida aloqalarni kengaytirishga, siyosat, iqtisodiyot va xavfsizlik sohalarida ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga oid hamda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi.

